

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA

MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

UDK :891.709:894.3

ISLOMOVA ZULFIZAR RUSTAMOVNA

**SAYYID QOSIMIY MASNAVIYLARINING G‘OYAVIY-BADIIY
XUSUSIYATLARI**

Magistr akademik darajasini olish uchun taqdim etilgan

DISSERTATSIYA

**Ish ko‘rib chiqildi va himoyaga
qo‘yildi. Mumtoz adabiyot tarixi
kafedrasi dotsent Tohirov S.Q.**

**Ilmiy rahbar: filologiya fanlari
nomzodi, dotsent Tohirov S.Q.**

“ _____ ” 2020-yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

ISLOMOVA ZULFIZAR RUSTAMOVNA

**SAYYID QOSIMIY MASNAVIYLARINING G‘OYAVIY-BADIIY
XUSUSIYATLARI**

5A120101 – Adabiyotshunoslik (o‘zbek adabiyoti)

Magistr akademik darajasini olish uchun taqdim etilgan

DISSERTATSIYA

SAMARQAND – 2020

**“Sayyid Qosimiy masnaviylarining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari”
mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi**

ANNOTATSIYASI

Sayyid Qosimiy Alisher Navoiygacha bo‘lgan davrdagi turkiy adabiyotining ko‘zga ko‘ringan namoyondalaridan biridir. Uning bizga qadar yetib kelgan to‘rtta masnaviy-dostoni turkiy adabiyotida xamsanavislik an‘anasining ilk qadamlari ,shuningdek,nomanavislik an‘anasi ta’sirida yaratilgan nodir durdonalardir.Mazkur asarlar istiqlol davrida jiddiy tadqiq etilmagan. Buning natijasi o‘laroq,ular turli bosqichdagi ta’lim dasturlariga goh kiritilib, goh chiqariladi.Ushbu magistrlik dissertatsiyasida Sayyid Qosimiyning “Majma’ul-axbor”, “Gulshani roz”, “Haqiqatnoma ” va “Ilohiynoma” kabi masnaviy-dostonlari adabiyotshunoslikning qiyosiy-tarixiy, qiyosiy tipologik,badiiy-biografik hamda shahr metodlari asosida tadqiq etiladi.Ishda masnaviylarning adabiy an‘analarga munosabati, poetik xususiyatlari,ma’naviy yetuk shaxs tarbiyasidagi ahamiyati yoritiladi.

M U N D A R I J A

I Kirish: Magistrlik dissertatsiyasining umumiy tavsifi.....9

II. Asosiy qism:

1-Bob: Sayyid Qosimiy shaxsiyati va adabiy merosi manbalari..... 17

1.1. Sayyid Qosimiy shaxsiyati va adabiy merosining
o‘rganilishi 17

1.2. Shoir shaxsiyati va adabiy merosi..... 29

**2-Bob: Sayyid Qosimiy masnaviylari va turkiy adabiyotda
xamsanavislikning ilk qadamlari53**

2.1.“Majma’” ul-axbor” dostoni va xamsanavislik
an’anasi..... 49

2.2 “Gulshani roz” masnaviysining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari 53

**3-Bob: Sayyid Qosimiy masnaviylari va o‘zbek adabiyotida
nomanavislik taraqqiyoti 66**

3.1 O‘zbek adabiyotida nomanavislik an’anasi va Sayyid Qosimiy
masnaviylari

(“Haqiqatnoma”).....64

3.2.”Ilohiynoma” va nomanavislikning yangi yo‘nalishi.....67

III.Xulosa 71

IV. Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati75

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASINING UMUMIY TAVSIFI

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati . "O`zbekiston xalqi minglab yillar davomida barpo etilgan ulkan madaniy obidalar bilan faxrlanadi". O`zbekiston Respublikasining 1- Prezidenti muhtaram Islom Karimov aytgan bu gapda bir olam hikmat bor. Chunki bu ulkan madaniy meros xalqimizning jahon sivilizatsiyasi xazinasiga qo`shgan ulug` hissassi bo`lib, uni yaratishda donishmand ajdodlarimiz... xizmatlari beqiyosdir".<sup>1</sup> Bunday madaniy merosni asrab-avaylash bilan birga, yosh avlodga tanishtirish, tasavvurida shakllantirish, jonlantirish lozim. Kelajak vorislari bo`lgan yoshlar merosimizdan bahramand bo`lsagina baxtli hayot, farovon yurt barpo etadilar.

Ota-bobolarimizdan qolgan muqaddas bu merosda ajdodlarning beqiyos ma`naviy, madaniy boyliklari mujassamlashgan bo`lib, bu boyliklarsiz o`zbek xalqining ma`naviy hayotini va rivojini tasavvur qilish qiyin. Shu o`rinda muhtaram 1-prezidentimiz I. Karimovning quyidagi fikrlarini keltirish ayni muddaodir: "Ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan eng qadimgi tosh yozuvlar va bitiklar, xalq og`zaki ijodi namunalaridan tortib bugungi kunda kutubxonlarimiz xazinasida saqlanayotgan ming-minglab qo`lyozmalar, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san`at, siyosat, falsafa, tibbiyot ... va boshqa sohalarga oid qimmatbaho asarlar bizning buyuk ma`naviy boyligimizdir ...

Bunday noyob va bebaho boylikni har tomonlama chuqur o`rganish, uning ma`no-mazmunini farzandlarimizga yetkazish masalasi barchamiz, birinchi galda, ziyolilarimiz, butun jamoatchiligimiz uchun ham qarz ham farz bo`lishi shart, deb hisoblayman.²

Bugungi kunda hukumatimiz rahbari Sh. Mirziyoyev tomonidan savodxonlik va kitobxonlikka e`tiborni oshirish haqidagi bir qancha ilg`or

¹ Iqtibos quyidagi manbadan olindi: Valixo`jaev B. Mumtoz siymolar. II jild. - Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002. 3-bet.

² I.Karimov. Yuksak ma`naviyat-yengilmas kuch. - T.: "Ma`naviyat", 2008. 44-bet.

fikrlaridan iqtibos olgan holda, bugungi kunda o‘quv va ilmiy adabiyotlarni chop ettirish borasida ham ko‘plab amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Shu jihatdan, Sayyid Qosimiy dostonlarining ham bugungi kitobxon uchun o‘ziga xos ahamiyati mavjud. Asardagi so‘zboshi va hikoyatlarning asosan pand – nasihat ruhida ekanligi, o‘rni bilan xalq og‘zaki ijodiga ham murojaat etib maqollardan o‘rinli foydalanganligi shoirning yuksak mahorat egasi ekanligidan, badiiy merosining maxsus o‘rganilishga loyiq muhim manbaligini isbotlaydi. Shu maqsadga yo‘naltirilgan ushbu magistrlik dissertatsiyasi mavzusining dolzarbligiga shubha qoldirmaydi.

Yaqin yillarga qadar adabiy merosi qo‘lyozma holdagina qolib kelayotgan mutafakkir shoirlardan biri Sayyid Qosimiydir. “Majma’ ul-axbor”, “Gulshani roz”, “Haqiqatnoma” va “Ilohiynoma” kabi masnaviy-dostonlar muallifi bo‘lgan Sayyid Qosimiy shaxsiyati va adabiy merosi haqida adabiyotshunoslikda ma’lum bir ishlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, masnaviylarining tub mohiyati hamda o‘zbek mumtoz adabiyoti tarixidagi o‘rni va mavqeyi mukammal yoritilgan deb bo‘lmaydi.

Sayyid Qosimiy o‘zbek mumtoz adabiyotida nomanavislik an’anasini o‘ziga xos tarzda davom ettirgan shoirdir. U, shuningdek, Qutb Xorazmiy, Haydar Xorazmiylar qatorida Alisher Navoiyga qadar turkiy adabiyotda xamsanavislik an’anasining shakllanishi uchun zamin hozirlashda ishtirok etgan, shu bilan birga, Farididdin Attorning tasavvufiy qarashlarini turkiy adabiyotga olib kirishda ilk qadamlarni qo‘ygan shoir va mutafakkir sanaladi. Mumtoz hikoyat janri taraqqiyotida ham Sayyid Qosimiy adabiy merosining o‘rni salmoqli. Binobarin, shoir va mutafakkir adabiy merosini mazkur adabiy hodisalarda tadqiq va tahlil etish, shoir asarlari tarkibida keltirilgan hikoyatlar genezisi hamda g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari masalalari hali maxsus tadqiqotlar doirasida o‘rganilishga muhtojdir. Ushbu magistrlik dissertatsiya mavzusining dolzarbligi shular bilan belgilanadi..

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Sayyid Qosimiy adabiy merosi o‘tgan asrning 80-yillari oxiri, aniqrog‘i, 1977-yilda H.Sulaymonov rahbarligida Zahiriddin Muhammad Bobur qadamjolari bo‘ylab tashkil qilingan ekspeditsiyalar davomida aniqlandi. Olimning hisobotida Hindistonning Rampur shahridagi Rizo kutubxonasida saqlanadigan Sayyid Qosimiyning to‘rtta masnaviysi jamlangan qo‘lyozma haqida ma’lumot beriladi. Qo‘lyozma hijriy 1044 (1634)-yilda Buxoroda kotib Muhammad Sodiq Munshiy tomonidan ko‘chirilgan bo‘lib, umumiy hajmi 4468 misrani tashkil etadi.

1979-yilda O‘zbekiston FA Qo‘lyozmalar instituti tomonidan tashkil etilgan navbatdagi arxiografik ekspeditsiya natijasida shoir asarlarining, aniqrog‘i, “Gulshani roz” dostonining XIX asrda ko‘chirilgan yana bir qo‘lyozmasi aniqlandi.

Shoir adabiy merosidan namunalar ilk marotaba 1987-yilda “O‘zbek adabiyoti bo‘stoni” seriyasi ostida nashr ettirilgan “Muborak maktublar” majmuasida muallif haqidagi muxtasar ma’lumot bilan birga nashr ettirildi.³

Sayyid Qosimiy adabiy merosini matnshunoslik va adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etgan olim B.Qosimxonov shoir adabiy merosi haqida “Sayyid Qosimiyning adabiy-didaktik dostonlari” nomli monografiya e‘lon qildi.⁴ Olim o‘n yillik tadqiqotlari natijasini nomzodlik dissertatsiyasi shaklida himoya

³ Sayyid Qosimiy. Haqiqatnoma. Sadoqatnoma // Muborak maktublar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va San‘at nashriyoti, 1987. 144-182 hamda 183-209-betlar.

⁴ Qosimxonov B. Sayyid Qosimiyning adabiy-didaktik dostonlari. –Toshkent: Fan, 1987.

qildi⁵ hamda 1992-yilda “Masnaviylar majmuasi” nomi bilan “Fan” nashriyotida shoirning to‘rtala masnaviysini ham chop ettirdi.⁶

O‘tgan asrning so‘nggi o‘n yilligi hamda yangi asrning o‘tgan davrida Sayyid Qosimiy shaxsiyati va adabiy merosi, masnaviylarining g‘oyaviy -hadiiy xususiyatlari bir qator ilmiy maqola hamda o‘quv adabiyotlarida qisman yoritildi. Jumladan, N.Rahmonov tomonidan nashrga tayyorlangan “O‘zbek mumtoz adabiyoti namunalari” majmuasida,⁷ R.Vohidov va H.Eshonqulovning “O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi” kitobida⁸ Qosimiy haqidagi ma’lumotlar hamda asarlaridan namunalarni uchratish mumkin.

Biroq sanab o‘tilgan tadqiqot va nashrlar asosan matnshunoslik sohasiga oid bo‘lib, ularda ayrim kamchiliklar ham kuzatiladi. Jumladan, ilmiy tahlil va munosabatlarda davr mafkurasining ta’siri seziladi. Mamlakatimiz istiqbolga erishgandan keyin adabiy merosimizni yangi mezonlar asosida xolis o‘rganish kun tartibidagi asosiy masalalardan biriga aylandi. Binobarin, Sayyid Qosimiy adabiy merosi, masnaviylarini ham tasavvuf ta’limoti, badiiyat qonuniyatlari asosida tadqiq etish muhim ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Magistrlik dissertatsiyasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.

Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida 2016-2020- yillar uchun “O‘zbek tili va adabiyotiga oid manbalar tadqiqi va ta’limi” umumiy mavzusi ostida istiqbolli reja tuzilgan bo‘lib, mazkur ilmiy izlanish ushbu reja asosida Alisher Navoiyga qadar turkiy adabiyotda xamsanavislik an’anasining shakllanishi muammosining tarkibiy qismi sifatida maydonga kelgan..

⁵ Саййид Касими и его литературно-дидактические поэмы. Автореферат кандидата наук. – Ташкент, 1991.

⁶ Sayyid Qosimiy. Masnaviylar majmuasi. –Toshkent: Fan, 1992.

⁷ O‘zbek mumtoz adabiyoti namunalari. Majmua. 1 jild. Tuzuvchi: N.Rahmonov. – T.: Fan, 2005.

⁸ Vohidov R., Eshonqulov H. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi (O‘quv qo‘llanma). –T.: Yangi asr, 2006.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Adabiyotshunoslik sohasida fundamental tadqiqotlar yaratgan Y.E.Bertels, A.Hayitmetov, B.Valixo‘jayev, A.Qayumov, N.Komilov, I.Haqqulov, M.Muhiddinov, D.Salohiy kabi olimlarning ilmiy ishlaridagi tadqiqot metodlaridan foydalanib, magistrlik dissertatsiyasida tadqiq va tahlil etilgan. Sayyid Qosimiy adabiy merosini matnshunoslik va adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etgan olim B.Qosimxonov shoir adabiy merosi haqida “Sayyid Qosimiyning adabiy-didaktik dostonlari” nomli monografiya e‘lon qilgan.⁹ Olim o‘n yillik tadqiqotlari natijasini nomzodlik dissertatsiyasi shaklida himoya qildi¹⁰ hamda 1992-yilda “Masnaviylar majmuasi” nomi bilan “Fan” nashriyotida shoirning to‘rtala masnaviysini ham chop ettirgan.¹¹ Ammo tadqiqotchi ikki masalada bir oz oqsaganligini darrov seziladi.

Birinchidan dostonlarning vazni haqidagi ma‘lumotlar mutlaqo noto‘g‘ri.¹² Ikkinchi kamchilik esa aynan birinchisining natijasi bo‘lsa kerak, bir qator misra va baytlarda matn bilan bog‘liq nuqsonlar ko‘zga tashlanadi. U o‘zining dostonlari bilan klassik adabiyotimiz tarixida vujudga kelgan didaktik dostonchilik janrini rivojlantirishga o‘zining ma‘lum hissasini qo‘shgan iste’dodli san’atkordir. Shoir bu epik dostonlar bilan birinchidan, o‘zidan oldin o‘tgan shoir va adiblarning an‘analarini davom ettirgan bo‘lsa, ikkinchidan, bu janrni o‘zining ijodkorligi va badiiyoti bilan ham shaklan, ham mazmunan boyitib yuqori pog‘onaga ko‘tardi.

Sayyid Qosimiy hayoti, ijodi va uning merosini yanada chuqurroq o‘rganish XV asr adabiy muhiti va adabiy tilini o‘rganishda ham muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

⁹ Qosimxonov B. Sayyid Qosimiyning adabiy-didaktik dostonlari. –Toshkent: Fan, 1987.

¹⁰ Саййид Касими и его литературно-дидактические поэмы. Автореферат кандидата наук. – Ташкент, 1991.

¹¹ Sayyid Qosimiy. Masnaviylar majmuasi. –Toshkent: Fan, 1992.

¹² Shu manba, 14-15-betlar.

Dissertatsiyaning amaliy ahamiyati. Sayyid Qosimiy masnaviylari mamlakatimiz ta'lim tizimining deyarli barcha bosqichlardagi o'quv dasturlariga kiritilgan. Binobarin, magistrlik dissertatsiyasi materiallari, unda bildirilgan fikr-mulohaza va xulosalar Akademik litsey va KH kollejlari hamda oliy ta'lim bakalavriat bosqichining "Filologiya va tillarni o'qitish" yo'nalishi o'quv dasturlariga kiritilgan "Adabiyot", "O'zbek mumtoz va milliy uyg'onish adabiyoti" fanlari yuzasidan yaratiladigan o'quv adabiyotlarining XV asrga oid bob va fasllarini to'ldirish, takomillashtirish imkonini beradi.

Ishning tuzilishi va hajmi. Magistrlik dissertatsiyasi an'anaviy tuzilishga ega bo'lib, Kirish, jami oltita faslni o'z ichiga oladigan uchta asosiy bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyot va manbalar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 75 sahifani tashkil etadi.

1-BOB:

SAYYID QOSIMIY SHAXSIYATI VA ADABIY MEROSI MANBALARI.

1.1. Sayyid Qosimiy shaxsiyati va adabiy merosining o'rganilishi.

Har bir xalq va adabiyot tarixida shakllanish va rivojlanish, turg'unlik, yuksak taraqqiyot davrlari mavjud bo'ladi. Zero madaniyat va badiiy ijod tarixi jamiyat tarixi bilan bevosita aloqador bo'lib, jamiyatdagi rivojlanish va inqirozlar adabiy jarayonda ham o'z ifodasini topadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda o'zbek madaniyati va tarixining ko'p asrlik tarixida XV asr, ya'ni temuriylar davri alohida ajralib turadi. Ayniqsa bu asrning ikkinchi yarmi Sharq renesansining cho'qqisi deya baholanadi.

XV asrning ikkinchi yarmi Movarounnahr va Xurosonda temuriylar saltanatining yakuniy davridir. Bu davrda Movarounnahrda temuriyzoda Sulton Abusaid mirzo, uning o'g'illari Sulton Ahmad mirzo, Umarshayx mirzo, Sulton Mahmud mirzo, Boysunqur mirzo, Sulton Ali mirzolar saltanati davom etgan bo'lsa, Hirot markazligidagi Xurosonda esa Abulqosim Bobur mirzo, Abusaid mirzolaridan so'ng 1469-yildan 1506-yilgacha Sulton Husayn Boyqaro hukmronlik qildi.

Hirot markazligidagi Xurosonda Sulton Husayn Boyqaro hukmronlik davrining ko'pchilik qismi ham uning do'sti Alisher Navoiy, ustози Abdurahmon Jomiy, amir Shayximbek Suhayliy, Pahlavon Muhammad va boshqalar ko'magida samarali tarzda davom etdi.

Abusaid Mirzo, Abulqosim Bobur hamda Sulton Husayn Boyqaro davridagi Xuroson, xususan, Hirotning holati Alisher Navoiyning turli asarlarida Mirxond va Xondamir "Ravzat us-safo"sining yettinchi jildida, Bobur "Boburnoma" sida, Sulton Husayn Boyqaroning o'zi yozgan "Risola"sida, Vosifiyning "Badoe' ul-vaqoe'" yodnomasi va boshqa asarlarda batafsil bayon

qilingan. Ilm va san'atning turli sohalari bilan chambarchas aloqada bo'lgan adabiy muhitda ham ana shunday rivojlanish ko'zga tashlanadi.

XV asrning ikkinchi yarmi - "Temuriylar davri haqiqatan ham ilm-fan, madaniyat va maorifning behad ravnaq topishini ta'minlagan Sharq uyg'onish davri edi". O'zbekiston1-Prezidenti muhtaram I. Karimov tomonidan juda adolatli tarzda baholangan bu davr ilmiy-adabiy muhitini chuqur o'rganish va yoritishga xizmat qiladigan qimmatbaho ilk manbalar mavjudki, ular o'sha davrda yashab ijod etgan shoir, nasrnavis va tarixchilarning bizgacha etib kelgan meroslaridir. Bu davr yozma yodgorliklaridagi ma'lumotlar yaxlit tarzda o'rganilganda davr adabiy muhiti, uning xususiyatlari haqida aniq xulosalarga kelish mumkin.

Mavjud manbalarning ma'lumotlari umumlashtirilsa, shu narsa ma'lum bo'ladiki, mazkur davr adabiy muhiti turli toifa va tabaqadan yetishib chiqqan shoir va adiblardan iborat bo'lib, ularning umumiy soni mingdan ham ko'proqdir. Ular orasida shoh (Husayn Boyqaro), shahzoda (G'arib mirzo), amir (Alisher Navoiy, Shayxim Suhayliy), ziyoli (Abdurahmon Jomiy), hunarmand (Sulton Ali Mashhadiy), dehqon (Darvesh Dehakiy), talaba (Sayfiy Buxoriy, Badriddin Hiloliy, Mirzobek) va boshqa toifalarning namoyandalari bor.

Turli ijtimoiy toifa va tabaqa vakillaridan tashkil topgan adabiy muhitda shunga muvofiq tarzda turli badiiy uslublar, mazmun va badiiylik saviyasi va darajasi turli xil bo'lgan asarlar mavjud edi.

Bu davr adabiy muhitida mumtoz adabiyotdagi janrlarning ko'pida badiiy asarlar yaratilgan bo'lsa-da, she'riy janrlardan g'azal, qasida, ruboiy, qit'a, fard, muammo va musammatlarga ko'proq e'tibor qaratildi. Doston-masnaviy janrida esa alohida doston-masnaviylar, jumladan, Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr"i, Shayximbek Suhayliyning "Layli va Majnun"i bilan bir qatorda turkum doston-masnaviylar, ya'ni xamsa: Alisher Navoiy "Xamsa"si va sab'a-yettilik: Abdurahmon Jomiyning "Haft avrang"i ham yaratildi. Nasriy asarlar yozish ham keng rivojlanib, tarixiy (Mirxond va Xondamirning "Ravzat-us-safo"si, Alisher Navoiyning "Tarixi muluki Ajam", "Tarixi anbiyo va hukamo"), falsafiy

(Abdurahmon Jomiyning "Nafahot ul-uns", Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat"), pand-nasihati va ijtimoiy (Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub"i, Husayn Voiz Koshifiyning "Futuvvatnoma", "Axloqi Muhsiniy", Abdurahmon Jomiyning "Bahoriston"), ilmiy (Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois", "Muhokamat ul-lugʻatayn", "Mezon ul- avzon", Abdurahmon Jomiyning aruz va qofiya haqidagi risolalari, Atoulloh Mashhadiyning "Badoe` us-sanoe`", Sayfiy Buxoriyning aruzga doir risolasi), badiiy (Husayn Voiz Koshifiyning "Anvori Suhayliy" - "Kalila va Dimna" ning yangi tahriri) yoʻnalishdagi asarlar maydonga keldi. Bu asarlarning hammasida ham mumtoz nasrda qoʻllaniladigan sanʼatlar, jumladan, sajʼ keng ishlatilgan. Shu jihatdan nasriy asarlarda badiiylilik ancha sezilib turadi, ularda oyat va hadislar, sheʼriy parchalardan foydalanish kuzatiladi.

Davr adabiy jarayonida kuzatiladigan xususiyatlardan yana biri unda romantik tasvir uslubining yetakchiligi bilan bir qatorda realistik tasvir uslubining ham tobora namoyon boʻlib borayotganidir. Agar romantik tasvir uslubi gʻazal, doston va dostonlar turkumi, badiiy nasr namunalarida («Anvori Suhayliy», «Bahoriston») koʻproq kuzatilsa, realistik tasvir uslubi ham ana shu va boshqa (qitʼa, esdalik nasriy asarlar, falsafiy-axloqiy dostonlar) janrlarda namoyon boʻlaverdi. Bu holning, xususan oʻzbek adabiyoti namunalarida ustuvor boʻlib borgani qiziqarlidir. Masalan, gʻazal janrida odatan ishq va oshiqlik mavzusi yoritiladi. Bu davrda ham xuddi shu anʼana davom etgani bilan birga gʻazal janrining mavzu doirasi kengayib, unda ijtimoiy, falsafiy, tasavvufiy, axloqiy mavzulardan bahs yuritish kuchaydi. Bu hol xususan Alisher Navoiy gʻazaliyotida yaqqol koʻzga tashlanadi.

XV asrning ikkinchi yarmidagi adabiy jarayonning xususiyatlaridan yana biri oʻtmish ilmiy-adabiy merosiga murojaat etib, uni yangicha talqin qilishga harakat qilish yoʻnalishidir. Shuning natijasida bu davr adabiy jarayoni namoyandalari Abulqosim Firdavsiy «Shohnoma»si, Xoja Ahmad Yassaviy hikmatlari, Nizomiy Ganjaviy «Xamsa»si, Saʼdiy Sheroziy devoni, «Guliston» va «Boʻston»i, Xusrav Dehlaviy devoni va «Xamsa»si, Hofiz Sheroziy devoni,

Farididdin Attorning «Tazkirat ul-avliyo», «Mantiq ut-tayr»i bilan birga «Kalila va Dimna», «Ming bir kecha» kabi Sharqda mashhur bo'lgan ilmiy-adabiy yodgorliklarga alohida e'tiborni qaratdilar. Bu nodir yozma yodgorliklarni yangitdan ko'chirish va o'quvchilarga taqdim etish vositasida ularni targ'ib etish hamda ulardan ijodiy ilhom olishning samaralari turli xilda namoyon bo'ldi. Buning natijasida yangi xildagi asarlar maydonga keldi, yangi tarjimalar, ilhomlanishning natijasi bo'lmish asarlar yaratildi.

Demak, XV asrning ikkinchi yarmidagi adabiy jarayon turli uslub va saviyadagi shoirlardan tarkib topgan bo'lsa-da, mazmundorlik va badiiylilikning yuksak talablari asosida ijod qiluvchi haqiqiy shoirlar – Alisher Navoiy (turkiy) va Abdurahmon Jomiy (forsiy) yetakchilik qilar edi. Ularning o'lmas adabiy va ilmiy merosidan bashariyat hanuzgacha bahramand bo'lib kelmoqda.

XV asr o'rtalari va II yarmi adabiy muhitining o'ziga xos namoyandalaridan biri shoir va masnaviynavis Sayyid Qosimiydir.

Sayyid Qosimiy o'zbek mumtoz adabiyotida nomanavislik an'anasini o'ziga xos tarzda davom ettirgan shoirdir. Yusuf Xos Hojib va Ahmad Yugnakiylar boshlab bergan turkiy didaktik dostonnavislik an'anasining XV asrdagi taraqqiyoti ham uning nomi bilan bog'liq. Sayyid Qosimiy shuningdek, Qutb Xorazmiy, Haydar Xorazmiylar qatorida Alisher Navoiyga qadar turkiy adabiyotda xamsanavislik an'anasining shakllanishi uchun zamin hozirlashda ishtirok etgan, shu bilan birga, Farididdin Attorning tasavvufiy qarashlarini turkiy adabiyotga olib kirishda ilk qadamlarni qo'ygan shoir va mutafakkir sanaladi. Mumtoz hikoyat janri taraqqiyotida ham Sayyid Qosimiy adabiy merosining o'rni salmoqli. Binobarin, shoir va mutafakkir adabiy merosini mazkur adabiy hodisalar kontekstida tadqiq va tahlil etish, shoir asarlari tarkibida keltirilgan hikoyatlar genezisi hamda g'oyaviy-badiiy xususiyatlari masalalari hali maxsus tadqiqotlar doirasida o'rganilishga muhtojdir.

Sayyid Qosimiy adabiy merosi o'tgan asrning 80-yillari oxiri, aniqrog'i, 1977-yilda H.Sulaymonov rahbarligida Zahiriddin Muhammad Bobur

qadamjolari bo‘ylab tashkil qilingan ekspeditsiyalar davomida aniqlandi. Olimning hisobotida Hindistonning Rampur shahridagi Rizo kutubxonasida saqlanadigan Sayyid Qosimiyning to‘rtta masnaviysi jamlangan qo‘lyozma haqida ma’lumot beriladi. Qolyozma hijriy 1044 (melodiy 1634)-yilda Buxoroda kotib Muhammad Sodiq Munshiy tomonidan ko‘chirilgan bo‘lib, umumiy hajmi 4468 misrani tashkil etadi.¹³

1979-yilda O‘zbekiston FA Qo‘lyozmalar instituti tomonidan tashkil etilgan navbatdagi arxiografik ekspeditsiya natijasida shoir asarlarining, aniqrog‘i, “Gulshani roz” dostonining XIX asrda ko‘chirilgan yana bir qo‘lyozmasi aniqlandi.¹⁴

Shundan keyin masnaviynavis shoir va mutafakkir adabiy merosiga qiziqish, Qosim va Qosimiy taxallusli shoirlar haqida ma’lumot to‘plash ishlari boshlandi.

Sayyid Qosimiy adabiy merosi, uning qo‘lyozma manbalarini matnshunoslik va adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan monografik planda tadqiq etish ishlari adabiyotshunos olim B.Qosimxonov zimmasiga tushdi. Olim Sayyid Qosimiy adabiy merosi bo‘yicha ancha izlanishlar olib bordi. “Gulshani roz” dostonining Toshkentda saqlanadigan va yanglish tarzda Navoiyga nisbat berilgan nusxasini aniqlab Rampur nusxasi bilan qiyosan tadqiq etdi. Tadqiqotning ilk natijalarini “Sayyid Qosimiyning adabiy-didaktik dostonlari” nomli monografiyasida (1987) e‘lon qildi.¹⁵ Olim 1991-yilda “Sayyid Qosimiy va uning adabiy-didaktik dostonlari” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi.¹⁶ Dissertatsiyada Sayyid Qosimiy masnaviylari qo‘lyozmasi hamda ularning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlariga doir atroflicha fikr-mulohaza yuritilgan. Xususan, “Majma’ ul-axbor” dostoni haqida tahliliy fikrlar ko‘p. Biroq

¹³ Qosimxonov B. Sayyid Qosimiyning adabiy-didaktik dostonlari. – Toshkent: Fan, 1987. 22-bet.

¹⁴ Muborak maktublar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1987. 143-bet.

¹⁵ Qosimxonov B. Sayyid Qosimiyning adabiy-didaktik dostonlari. –Toshkent: Fan, 1987.

¹⁶ Саййид Касими и его литературно-дидактические поэмы. Автореферат кандидата наук. – Ташкент, 1991.

avtoreferatni o'qigan kishi tadqiqotchining ikki masalada bir oz oqsaganligini darrov sezadi.

Birinchidan dostonlarning vazni haqidagi ma'lumotlar mutlaqo noto'g'ri.¹⁷ Olimning fikriga ko'ra "Majma' ul-axbor" rajazi musaddasi matviy va rajazi musaddasi maxbuni marbu' vaznida yozilgan. Qiziq tomoni bu ikki vaznning afoilini tadqiqotchi tamoman ikki xil tarzda beradi:

- mustafilun mustafilun muftailun;
- muftailun muftailun foilun;

Vaholonki doston xamsalarning birinchi dostonlariga xos bo'lgan sare'l musaddasi matviyi makshuf yoki mavquf vaznida yozilgan:

Bismillohir rahmonir rahim,
Fotihayi G' fath erur, G' ey hakim.
– V V – G' – V V – G' – V –
Mufta'ilun mufta'ilun foilun.

"Gulshani roz" dostoni esa olimning fikricha ramali musaddasi mahzuf va ramali musaddasi maxbun vaznlarida yozilgan. Ikkinchi vaznning afoili umuman antiqa tarzda keltirilgan: foilotun foilotun fa'il (?).

Aslida "Gulshani roz" ham "Majma' ul axbor bilan bir xil vaznda yozilgan:

Tangri taolo otidur, ey hakim,
Roziq satG'toru rauG'fu rahim.
– V V – G' – V V – G' – V –
Mufta'ilun mufta'ilun foilun.

¹⁷ Shu manba, 14-15-betlar.

“Ilohiynoma” (Oldingi manbalardf bu doston “Sadoqatnoma” nomi bilan tilga olingan¹⁸) dostoni esa go‘yoki aruzning ramali musaddasi solim va ramali musaddasi maxbuni mahzuf vaznlarida yozilgan. Aslida esa keyingsh ikki doston nomanavislik an‘anasi va umuman ko‘pchilik ishqiy va ishqiy sarguzasht dostonlar uchun an‘anaviy bo‘lgan hazaji musadvasi mahzuf yoki maqsur vaznida yozilgan:

Malohat kishvarida podshohe,
Ko‘zi lashkarG’kashu husni G’ sipohe.
V – – – G’ V – – – G’ V – –
Mafoiylun mafoiylun fauvlun

Umuman olim faqat bitta doston – “Haqiqatnoma”ning vaznini nisbatan to‘g‘ri aniqlagan.

Ikkinchi kamchilik esa aynan birinchisining natijasi bo‘lsa kerak, bir qator misra va baytlarda matn bilan bog‘liq nuqsonlar ko‘zga tashlanadi.

Quyidagi baytga e‘tibor qaratamiz:

Kimdaki bor ahlu sahodin asar,
Bosqan izin qilur taoji sar.

Baytning to‘g‘ri shakli, bizningcha, shunday bo‘lishi kerak:

Kimdaki bor aqlu saxodin asar,
Bosqan izin xalq qilur toji sar.
– V V – G’ – V V – G’ – V –
Mufta’ilun mufta’ilun foilun.

¹⁸ Muborak maktublar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1987. 183-bet; Qosimxonov B. Sayyid Qosimiyning adabiy-didaktik dostonlari. –Toshkent: Fan, 1987. 66-bet.

B.Qosimxonov 1992-yilda “Masnaviylar majmuasi” nomi bilan “Fan” nashriyotida shoirning to‘rtala masnaviysini ham chop ettirdi.¹⁹

B.Qosimxonovning qosimiyshunoslikdagi barcha xizmatlarini e’tirof etgan holda, ta’kidlash joizki, uning tadqiqotlarida nuqsonlar ham talaygina.

O’tgan asrning so‘nggi o‘n yilligi hamda yangi asrning o‘tgan davrida Sayyid Qosimiy shaxsiyati va adabiy merosi, masnaviylarining g‘oyaviy badiiy xususiyatlari bir qator ilmiy maqola hamda o‘quv adabiyotlarida qisman yoritildi. Jumladan, N.Rahmonov tomonidan nashrga tayyorlangan a “O‘zbek mumtoz adabiyoti namunalari” majmuasida,²⁰ R.Vohidov va H.Eshonqulovning “O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi” kitobida²¹ Qosimiy haqidagi ma’lumotlar hamda asarlaridan namunalarni uchratish mumkin.

Biroq sanab o‘tilgan tadqiqot na nashrlar asosan matnshunoslik sohasiga oid bo‘lib, ilmiy tahlil va tadqiqotlarda davr mafkurasining ta’siri seziladi. Mamlakatimiz istiqbolga erishgandan keyin adabiy merosimizni yangi mezonlar asosida xolis o‘rganish kun tartibidagi asosiy masalalardan biriga aylandi. Binobarin, Sayyid Qosimiy adabiy merosi, masnaviylarini ham tasavvuf ta’limoti, badiiyat qonuniyatlari asosida tadqiq etish muhim ahamiyatini saqlab qolmoqda.

¹⁹ Sayyid Qosimiy. Masnaviylar majmuasi. –Toshkent: Fan, 1992.

²⁰ O‘zbek mumtoz adabiyoti namunalari. Majmua. 1 jild. Tuzuvchi: N.Rahmonov. – T.: Fan, 2005.

²¹ Vohidov R., Eshonqulov H. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi (O‘quv qo‘llanma). –T.: Yangi asr, 2006.

1.2. Shoir shaxsiyati va adabiy merosi.

XIV-XV asrlar o'zbek dostonchiligining rivojlangan davri bo'lib, ikki tendensiya – biri sujetli asar yozishga intilish, ikkinchisi konkret sujet chizig'iga ega bo'lmagan didaktik poemalar yaratishga bo'lgan intilish tendensiyasi yuzaga keldi. Sharq, jumladan, o'zbek va fors-tojik adabiyotida didaktik dostonchilik ijtimoiy hayot va inson faoliyati mavzuini yoritishga o'tib, inson va jamiyat, inson va ijtimoiy tabaqalar, inson va axloq muammolari kabi muhim masalalarni qamrab ola boshladi. Shu kabi didaktik dostonlar sohasida ham ijod qilgan mutafakkir shoirlardan biri Sayyid Qosimiydir.

Turkiy va fors-tojik adabiyoti tarixida Qosim va Qosimiy kabi ism va taxalluslar ostida ma'lum bo'lgan ijodkorlar talaygina. Ular orasida eng mashhur shoir, mutafakkir va mutasavvuf shoir XIV asrning oxiri, XV asrning boshlarida yashagan Sayyid Qosim Anvordir. "Majolis un-nafois" tazkirasida birinchi o'rinda tilga olingan mazkur fors-tojik adabiyoti vakili haqida Alisher Navoiy shunday ma'lumot beradi: "Mirning asli Ozarbayjondindur va mavludi Sarob otlig' kentdindur. Yigitliklarida shayx Sadriddin Ardabiliy (quddisa sirruhu)g'a murid bo'ldilar va sufiya odob va tariyqin andin takmil qilib shayx ishorati bila Xurosong'a keldilar va oz vaqtda xaloyiq Mir xizmatig'a firifta bo'lub g'avg'o qila boshladilar. Podshohi zamon Mirga ixroj hukmi qildi. Balx va Samarqand sari borib, muddate bo'lub, yana dor us-saltanat azimati qildilar, yana Chig'atoy mirzodalari, balki ulus ozadalari murid bo'lib, hujum qila boshladilar. Ravishlari pok erdi va nafasleri otashnok. El bag'oyat alar nazmlarig'a moyil va she'rlarin o'qumoq va bitimakka rog'ib bo'ldilar. Har oyinakim, devon jam' qilurg'a bu amr bois bo'ldi va «Anis ul-oshiqin» otlig' muxtasarroq masnaviy ham nazm qildilar va tarje' dag'i dedilar va tabarruk jihatdan ikki matla' bitilur, biri bukim:

Ishqi tu ki sarmoyai mulki du jahon ast,
Alminnatu lillahki, maro bar dilu jon ast.

(Mazmuni: Sening ishqing ikki jahon mulkining sarmoyasidir, Oллоhga shukrlar bo‘lsinki u (ishq) bizning jonu qalbimizdadir).

Yana biri bukim:

Rindemu oshiqemu jahonso‘zu joma chok,
Bo davlati g‘ami tu zi fikri jahon chi bok.

(Mazmuni: Rind (ilohiy may bilan mast)miz, oshiqmiz, jahonnu kuydirguvchi va yoqavayronmiz. Sening g‘aming davlati bor ekan, jahon fikri (tashvishi) bilan nima ishimiz bor).

Bu faqir avval nazmekim, o‘rganibmen, bu so‘nggi matla’dur. Hamono uch yosh bila to‘rt yoshning orasida erdim, azizlar o‘qumoq taklifi qilib, ba’zi hayrat izhor qilurlar erdi va masnaviylari hazrati mavlono Jaloliddin Rumi (quddisa sirruhu) masnaviylarining vaznidakim «ramali musaddas» derlar voqe’ bo‘lubtur, bu misra’kim: “Bud dar Tabriz sayyidzodae”, andindur, go‘yoki maqsad o‘zlaridur... Va ul hazratning muborak marqadi Jom viloyatida Xarjurd qasabasidadur. Va faqir ham ul ostona joro‘bkashlaridinmen. Vafotlari sanai xamsa va salosina va samona miada (835-hijriy, 1432-melodiy) voqe’ bo‘lubdur”.²²

A.M.Sherbak “Poeticheskie proizvedeniya predshestvennikov Navoi” nomli maqolasida Britaniya muzeyida OCh 1893 raqami bilan saqlanuvchi qo‘lyozmada Lutfiy, Javhariy, Qambar o‘g‘li va Maxsur baxshilarning o‘yg‘ir yozuvi bilan eski o‘zbek tilida yozilgan g‘azallari borligi haqidagi ma’lumotlarni keltiradi. Shu o‘rinda Qosim taxallusli quyidagi bir g‘azali ham keltirib Qosimiyning bizgacha yetib kelgan yagona turkiy g‘azali ushbudir – deydi:

Ey sanam tangring uyin dardig`a qilg`iol chorani,
G`amza o`qin otib, qilding yurakka yorani.

²² Alisher Navoiy. MAT. 20 tomlik. 13-tom. – Toshkent: Fan, 1997. 10-11-betlar.

Ishvalar qilmoq bila bag`rimni pora aylading.

Ne ziyon qilur sanga so`rsang bu bag`ri porani.

A.M.Sherbak o`zining 1959-yilda nashr ettgan “Oguzname – Muhabbatname” nomli asarida Lutfiy, Javxariy, Qambar o`g`li va Mansur baxshilar haqida gapirib Qosimiy haqidagi ma`lumotlar hech bir katalogda uchramaganligini yana bir bor ta`ikdlaydi. Oradan uch yil o`tgach Sherbak o`zining “Grammatika starouzbekskogo yazo`ka” nomli asarida yuqoridagi shoirlar to`g`risida so`z yuritib, Qosimiy taxallusi bilan yozilgan g`azalinng muallifi haqida shunday deydi: “Kaso`m – polnoe imya Kasima Ali – ibn Nasir ibn Xarun ibn Abulkasim al Xusayniy at Tabriziyb on umer v 1431 gadu. Kaso`miy prinadlejit divan i filosofskoe sochinenie “Anis ul-orifin” na persidskom yazike”. Bu ma`lumotdan yuqoridagiga mansub degan xulosaga keladi. Qosim Anvor o`zining ilg`or fikrlari bilan o`z davrining shuhratli kishilaridan bo`lgan. Shunday ekan Alisher Navoiy uinng turkiy tilda ijod haqida o`zining “Majolis ul- nofois” asarida gapirgan bo`lur edi. Garchi g`azal “Gulshani roz”da uchramasa-da uning mavzusi va uslubidagi Qosimiy g`araliyoti bilan hamohangligidan kelib chiqib, mazkur g`azalni Qosim Anvorga nisbat berishdan ko`ra Sayyid Qosimiy qalamiga mansub deb taxmin qilishimiz haqiqatga yaqinroqdir. Chunki shoir o`z ijodi haqida “Yozug`im asaru ko`b, ozdur savob” deyishining o`zi bizga ushbu dostonlardan boshqa ham asarlar yozganligidan xabar beradi.

Sayyid Qosimiy ijodiyoti va hayoti haqida manbalardan uning zamondoshlari tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalar hozircha bizga ma`lum bo`lmasa-da, shoirning didaktik dostonlari orqali va unda ko`tarilgan ijtimoiy va siyosiy fikrlar orqali Sayyid Qosimiyning yetuk iste`dod egasi ekanligini ko`ramiz.

“Majolis un-nafoysis”ning to`rtinchi majlisida ham Qosimiy taxallusli shoir tilga olinadi: “M a v l o n o Q o s i m — Mavlono Abdurahim munajjimning

nabirasidir. O‘z zamonida nujum ahkomida muqarrar va musallam erdi va o‘zi ham nujum fanini yaxshi bilur. Bu matla’ aningdurkim:

Mo masti mudomem zi mayxona chi pursam,
Az beshu kami sog‘aru paymona chi pursam”.²³

Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush shuaro” asarida ham Qosim, Qosimiy taxallusi bilan qalam tebratgan bir qator shoirlar haqida ma’lumot bor. Shamsiddin Somiyning “Qomus ul-a’lam”, Xayyompurning “Farhangi suxanvaron” tazkirasida, shuningdek, sobiq ittifoq hududidagi ko‘plab qo‘lyozma fondlar haqidagi kataloglarda ham shu taxallusdagi shoirlar haqida ma’lumotlar uchraydi.²⁴

Biroq hozirga qadar tilga olingan Qosimiylarning birontasi XV asrning II yarmida turkiy tilda masnaviylar yaratgan Sayyid Qosimiy bilan aloqador ekanligi isbotlanmagan.

Sayyid Qosimiy masnaviylarining Hindistonning Rampur shahrida saqlanadigan qo‘lyozma nusxasi quyidagi dostonlarni o‘z ichiga oladi:

“Majma’ ul-axbor” – 2088 misra;

“Gulshani roz” – 544 misra;

“Haqiqatnoma” – 1114 misra;

“Ilohiynoma” (“Sadoqatnoma”) – 722 misra.

Sayyid Qosimiyning “Majmaa ul- axbor” dostoni Sulton Abu Said Mirzoga (1451 – 1469) bag‘ishlagan madhiya bilan boshlanadi. “Haqiqatnoma”ning xotimasida esa Sayyid Qosimiyning asarini yozib tugatgan yili haqida o‘zi shunday ma’lumotni beradi:

Muhabbat ko‘yida qildim iqomat,

“Haqiqatnoma” ni etdim tamom.

²³ Shu manba, 72-bet.

²⁴ Qosimxonov B. Qosimxonov B. Sayyid Qosimiyning adabiy-didaktik dostonlari. –Toshkent: Fan, 1987. 11-bet.

Maoniy durini olamga yoydim,

Ko'ngulning dardini bir shamma aydim.

Sakkiz yuz oltmish uchda bo'ldi tayyor.

Ra'bi ul- oxar oyinda bu guftor...

Yuqoridagi misralardan ushbu asarning hijriy 863 yili yoki 1458 – 1459 yillarda yozilganligini bilib olsak, boshqa tomondan ushbu dalillarga suyanan holda shoirning yashagan davrini ya'ni XV asr o'rtalarida Movarounnahr yoki Xurosonda yashab ijod etganligini aniqlaymiz.

Sayyid Qosimiyning tarjimai holiga kelsak, u haqida dostonlarda deyarli ma'lumot berilmagan. Asarning kirish qismidagi kitobning yozilish sabasi, hokim madhi, munojoy, hasbi hol va xotimalarda shoirning og'ir turmush kechirgani va boshqa shunga o'xshash boshqa ma'lumotlarni uchratish mumkin:

Kechdi hayot ohu nadomat bila,

Tegdi ko'ngil jonga malomat bila.

Ojoz- u bechorayu sargashtamen,

Xunu diludaydag'a og'ushtamen.

Ohim erur naqlu sirishkim – shabob.

Hasratu g'am o'tina bag'rim kabob...

Yoki

G`am tig`idan sina chu gul chok, chok,

Yondi ko`ngul nori muhabbatda pok.

Yegonu ichgonim bo`ldi dardu, g`am,

Hasratu mehnat xud emas zarra kam...

“Gulshani roz”dan keltirilgan ushbu misralar Sayyid Qosimiyning dostonni yoshi ulg`aygan vaqtda yozganligidan dalolat beradi:

Suldi qarilig`da yigitlik guli,

O`tdi umr, keldi ajal g`ul- g`uli...

“Sadoqatnoma”ning xotima qismidagi va “Majmaa ul-axbob”dagi ma`lumotlardan Qosimiy ilgari shoh va amaldorlar xizmatida bo`lganligi ma`lum bo`ladi. Keyinchalik shoir qandaydir, bizga hozircha ma`lum bo`lmagan sabablarga ko`ra saroydan chetlashtirilgan. Natijada, shoirning turmushi iqtisodiy jihatdan qiyinchilik bilan kechgan. Bu haqida shoir Abu Said Mirzoga bag`ishlangan madhiyasida ham hasrat, ham iltijo bilan shunday deb yozadi:

Bandadin ar kelsa xatovu gunoh,

Lutf ila andin kechirur podshoh.

Qosimiydir muri zaifi naxif,

Qahri Sulaymong`a emas harif...

yoki asarning tamsil qismida:

Qosimiydur ushbu ayitg`an faqir,
Hasratu g`am ilgida bo`lg`ay asir,

Bordur umidiki, shohi bahru bar
Qilg`ay aning boshina holi nazar.

“Gulshani roz”da esa Sayyid Qosimiy Jaloliddin Sayyid Mazidga qarata
iltijo qiladi va o`zining og`ir ahvoliga sultondan madadni kutadi:

Ohki, oh etti bu rozimni fosh,
Qayg`u yemak birla kecharmish maosh,

Mushkul emish dunyoda yo`qlik g`ami ,
Ochu yalang o`lmas emish odamiy.

Voyki umr o`tdi g`am- u dard ila,
So`zi dili gtarmu dami sard ila,

Vaqt turur Sayyidi olijanob,
Mahrami shahanshoi moliki rikob,

Lutf qilib qilsa inoyat manga,
Marhamati bo`lsa himoyat manga.

Soʻzlasa sulton qoshida soʻzumi,

El ichida qilsa qizil yuzumi,

Davlatidin olsa menga siymu zar,

Hilatu dastoru kulohu kamar,

Oʻzi dagʻi qilsa inoyat boʻlur,

Har na qilay desa qoʻlidin kelur,

Royi agar kelsa dagʻi ixtiyor,

Mulki viloyatda base vaqf bor.

Bersa alardin manga oʻn ming diram,

Boʻlgʻusi yoʻq bir tasuvu habba kam,

Loyiq emasturki manimtak faqir,

Boʻlsa aning davrida gʻamgʻa asir...

c

Haydar agar berdisa soʻz dodini,

Jumla jahon aylar oning yodini.

“Maxzani asrora” ayitdi javob,
Sohti maoniy durini chun sahob.

Manda dag‘i bor edi ushbu havas,
Shukri xudo toptim anga dastras.

Sayyid Qosimiyning ikkinchi dostoni “Gulshani roz“ ham aruzning sare‘I musaddasi matviyi makshuf vaznida yozilgan:

Tangri taolo otidur, ey hakim,
Roziq satG‘toru rauG‘fu rahim.
– V V – G’– V V– G’ – V –
Mufta’ilun mufta’ilun foilun.

Asar mazmun jihatidan axloqiy-ta’limiy yo‘nalishdagi dostonlar qatoridan joy oladi. Fors- tojik adabiyotida “Gulshani roz“ nomli asarlar yaratilgani tarixiy manbalardan ma’lum. Shulardan biri Maxmud Shabistariyning (1320 - yili vafot etgan) bizgacha yetib kelgan “Gulshani roz “ dostonidir. Bu asar mazmunan tasavvufga oid, shaklan o‘zaro savol-javob asosida qurilgan. Asar asosan tasavvuf ta’limotiga oid irfoniy qarashlarni targ‘ib va tashviq qilish maqsadida tuzilgan bo‘lib, ana shu ta’limot bilan qiziquvchilarga mo‘ljallangan.

Sayyid Qosimiyning “Gulshani roz“ asari ham ma’naviy kamolot masalalariga bag‘ishlangan bo‘lsa-da Maxmud Shabistariyning dostonidan mazmun jihatidan farq qiladi. . “Gulshani roz“ o‘zining kompozitsion tuzulishi bilan shoirning boshqa dostonlaridan ajralib turadi. Doston tarkibi xilma-xil she’riy janrlardan tuzilganligining o‘ziyoq fikrimizning dalilidir Asarda har bir bobga bitta g‘azal keltirilib, shoir uni kuyga solib o‘qish kerakligini ta’kidlaydi. Kuydagi qayta-qayta takrorlanib keladigan band esa asar mavzularini ajratish vositasi, ya’ni maxsus badiiy usul vazifasi sifatida qo‘llanilgan:

Nag`maye qil so`z bila savtu amal,
Mutrib aytg`il sen o`qib bu g`azal.

Asar o`n bobdan iborat bo`lib, ularning har biriga bittadan g`azal keltirilgan. Doston umumiy syujet va yaxlit kompozitsiyaga ega emas. Mavzu nasihatomuz misralar orqali birma-bir tartib bilan bayon qilib boriladi. Avval hamd, keyin na`t va sharq poeziyasi uchun an`anaviy kirishdan so`ng asarni Jalaliddin Sayyid Mazidga bag`ishlanganligi haqida gapiriladi. So`ngra uni madh etuvchi maxsus bob keladi. Bu bobda shoir o`zining nochorligini eslatib, Sayyid Mazodan yordam so`raydi.

Shoir o`z asarining asosiy g`oyaviy yo`nalishini axloq mavzuiga bag`ishlaydi. Unda odob, kamtarlik va saxovat, to`g`rilik va poklik kabi insoniy fazilatlar ulug`lanib jamiyat uchun ana shunday ijobiy xususiyatlarni o`zida mujassamlantirgan kishilarni tarbiyalash masalalari shoirga xos badiiy uslubda bayon etiladi.

“Gulshani roz”ning ayrim jihatlari Xorazmiy “Muhabbatnomasi va shu an`ana ta`sirida yaratilgan asarlarga o`xshab ketadi. Shakl, rang-barang janrlardan foydalanish, o`n bobdan iborat ekanligi shular jumlasidan. Shu tufayli uni mazkur an`ana kontekstida o`rganish maqsadga muvofiq.

Sayyid Qosimiyning “Haqiqatnoma” va “Ilohiynoma” masnaviylari aruzning boshqa bir an`anaviy vaznida, ya`ni hazaji musaddsi mahzuf va maqsur vaznlarida yozilgan.

“Haqiqatnoma”:

Haqiqat gar erursan tolibi roh,
Adab birla G' ayoq bos, bo'l G'gi-l ogoh.
V – – – G' V – – – G' V – —
Mafoiylun mafoiylun mafoiyl

Dame g`aflat birla ursang bilurlar,

Ravon qasdi G' dilu joning G' qilurlar.

V – – – G' V – – – G' V – –

Mafoiylun mafoiylun fauvlun

“Ilohiynoma”:

Yuzi yiz ravzayi rizvondin ortiq,

Labi sarchashmayi hayvondin ortiq.

V – – – G' V – – – G' V – –

Mafoiylun mafoiylun fauvlun.

Nigori nozanine ruhpayvand,

Ko'zi fitna, labi shakkar so'zi qand.

V – – – G' V – – – G' V – —

Mafoiylun mafoiylun mafoiyl

“Haqiqatnoma” aynan “Muhabbatnoma” vaznida yozilganligi bir necha o'rinda qayd etilgan:

“Ma'oniy durini olamg'a yoysam,

Muhabbatnomaning bahrinda aysam.

Mihabbat kuyida qildim iqomat,

“Haqiqatnomani etdim tamomat.

Shu o'rinda eslatish joizki, Alisher Navoiy o'zining “Mezon ul-avzon” asarida “Muhabbatnoma atamasini Xorazmiyning asari sifatida emas, hozirda biz “noma” janri deb tushunadigan hodisaga nisbatan ishlatilgan. Binobarin, Bu o'rinda ham aynan Xorazmiy asari emas, balki umuman muhabbatnoma (noma) janri nazarda tutilgan bo'lishi mumkin.

“Haqiqatnoma” muqaddima boblari (ha md, na’t, sababi nazm) qismlaridan tashqari, o‘n bir bo‘limdan tashkil topgan. Asar kompozitsiyasining o‘ziga xosligi shundaki, har bir bo‘lim uchta bobni o‘z ichiga oladi:

1. Nazariy qism.
2. Hikoyat.
3. Tamomi suxan (so‘zning tugashi, xulosa).

“Ilohiynoma” dostoni esa oldingi uchta dostondan ham farq qiladi. Birinchidan asarning muqaddima qismlari kesib olinganga o‘xshaydi. Doston yagona sujetli asar bo‘lib birdan sujet viqealari bilan boshlanadi:

Bor erdi vaqte bir sohibjamole,
Nigore nozanine bemisole,

Malohat kishvarida podshohe,
Ko‘zi lashkarkashu husni sipohe

2-BOB:

SAYYID QOSIMIY MASVAVIYLARI VA TURKIY ADABIYOTDA XAMSANAVISLIKNING ILK QADAMLARI

2.1. „Majma’ ul-axbor” dostoni va xamsanavislik an’anasi

Sayyid Qosimiy Qutb Xorazmiy, Haydar Xorazmiylar qatorida Alisher Navoiyga qadar turkiy adabiyotda xamsanavislik an’anasining shakllanishi uchun zamin hozirlashda ishtirok etgan, shu bilan birga, Fariduddin Attorning tasavvufiy qarashlarini turkiy adabiyotga olib kirishda ilk qadamlarni qo‘ygan shoir va mutafakkir sanaladi

“Majma’ul – axbor” asari. (Xabarlar to‘plami) Haydar Xorazmiyning “Maxzan ul – asror” asaridan farqli o‘laroq hajmi 18 bobda jamlangan bo‘lsa - da, misralar soni ortiq - 2088 misra, «Maxzan ul-asror» 23 bobni o‘z ichiga oladi. Hajmi 1230 misra 615 bayt (ayrim manbalarda 639 bayt²⁵)dan iborat.

Bu doston uch tarkibiy qismdan tashkil topgan: muqaddima, asosiy qism va xotima. Muqaddimaning o‘zini shartli ravishda ikkiga bo‘lish mumkin. Birinchi muqaddima Alloh hamdi, payg‘ambar nat‘i, xalifalar ta’rifidan iborat. Ikkinchi muqaddima esa Sulton Iskandar madhi, musannifning vasfu – holi kabi masalalarga bag‘ishlangan. Ushbu muqaddima qism jami yetti bobni o‘z ichiga oladi.

Sayyid Qosimiyning “Majma’ ul – axbor” asari an’anaviy boblar 6 qismda o‘z aksini topadi. Bular: hamd, na’t, kitobning yozilish sababi, shoh ta’rifi, tamsil, og‘ozi kitob.

“Muborak maktublar” asariga Sayyid Qosimiyning “Haqiqatnoma” va na’t qismlarisiz munajat bo‘limining ikkinchi bayti bilan boshlangan. Bu holatni ko‘rib o‘tamiz: B. Qosimxonovning “Sayyid Qosimiy. Masnaviylar majmuasi”da Munajat bo‘limi:

²⁵VohidovR., EshonqulovH. O‘zbekmumtozadabiyotitarixi. –T.: O‘zbekistonyozuvchilaruyushmasi. Adabiyotjamg‘armasinashriyoti, 2006, 169-bet.

Xudovando ba haqqi oli yosin,

Inoyat qilki bu da'vo eyasin

misralari bilan boshlanadi. “Muborak maktublar” da esa ikkinchi bayt quyidagicha:

Ki, turkiy birla nazm etsam kitobe,

Aning har harfi bo'lsa fathi bobe

misrasi bilan boshlangan. Bu qo'lyozmadagi xato emas, shuning uchun uni texnik xato desak tog'ri bo'ladi.

Asarni o'rganish borasida “Navoiyning nigohi tushgan” asarida ham Sayyid Qosimiy haqida ma'lumotlar bor.

Haydar Xorazmiyning «Maxzan ul-asror» hamon'anaviy kirish va asosiy qismdan tuzilgan. Sayyid Qosimiyning “Majma'ul – axbor” asari an'anaviy Qur'onning «Bismilo» oyati bilan boshlanadi. Uning hajmi unchalik katta emas, 21 bayt – 42 misra.

Nizomiyni ham asari Qur'onning «Bismilo» oyatidan boshladi. Bu asarga nazira bitgan barcha shoirlar qatori Haydar ham asarini shu tarzda boshlaydi»²⁶. Shu o'rinda eng mashhur bir necha xamsalarning birinchi baytlarini keltirishni joiz deb bildik:

Haydar Xorazmiy:

Bismillohir-rahmonir-rahim,

Fathu zafar oyatidur ey hakim.

Ushbu oyat zafar keltiruvchi oyatdir, ey hakim, sen buni unutma, doim yodingda tut mazmunida boshlanadi.

Sayyid Qosimiy:

Bismillohir – rahmonir rahim,

Fotihayi fath erur, ey hakim.

²⁶Abdullayev N. Haydar Xorazmiyning Nizomiy “M. ul-as” gamunosabati // O'zbek til va adabiyoti. 1974, # 2, 146.

Ey hakim, duo o‘qilsa, yaxshi tilak tilansa, u albatta g‘alaba keltiradi mazmunidagi misra bilan boshlanadi. Sayyid Qosimiy bu misrani aynan takrorlamaydi, balki unga yangicha mazmun olib kirishga harakat qiladi.

Alisher Navoiy o‘z “Xamsa” sini quyidagi misralar bilan boshlaydi:

Bismillohir-rahmonir-rahim,

Rishtag‘a chekti necha duri yatim.


Navoiy o‘zidan oldingi salaflardan farqli ravishda “ey hakim” ni takrorlamaydi va keying misralarda ham uning mazmunini ushlab turadi. Bu yo‘nalishga ko‘plab misollar keltirish mumkin, Sayyid Qosimiy ham an‘anaviylikni yangicha mazmunda ochishga harakat qiladi.

Bu an‘anaviy yo‘nalish bo‘lib, Sayyid Qosimiy ham ushbu an‘anaga sodiq qolgan holda asarni falsafiy va ijtimoiy fikrlar bilan boyitadi. Haydar Xorazmiy Nizomiy Ganjaviydan farqli o‘laroq, dostonida avval hikoyat, undan so‘ng shu hikoyadan kelib chiqadigan xulosa va fikrlarni mav‘iza shaklida bayon etadi, ma‘lum bir masala yuzasidan falsafiy qarashlari hikoyatlarda o‘z aksini topgan.

Sayyid Qosimiy ham o‘ziga xos yo‘nalishdan borib, hikoyatlarni alohida sarsuxan (so‘zboshi) lar bilan bezaydi. Shunga mos ravishda hikoyat ham keltiradi.

Sayyid Qosimiy “Majma’ ul – axbor” asarini kompozitsiyasi esa, Haydar Xorazmiy asaridan farqli ravishda an‘anaviy boblardan: hamd, na’t, kitobning yozilish sababi, shoh ta’rifi, tamsil, og‘ozi kitob bo‘limidan so‘ng:

Sarsuxan



Hikoyat

ko‘rinishdagi 18 ta sarsuxan va 18 hikoyatdan tashkil topgan.

Haydar Xorazmiyning “Maxzan ul - asror” asarida “Musannifning vasfu holi” bo‘limidagi o‘xshashliklar quyidagicha:

Haydar Xorazmiyning “Maxzan ul - asror” ida :

Bir kecha g‘am birla edim hamnafas,

Munisu damsozim ul erdiyu bas.

Ko‘z yoshidin - boda, bag‘irdin – kabob,

Dardu – dilim – nuqlu, fig‘onim – rubob.

Sayyid Qosimiyning “Majma’ ul – axbor” asarida :

Hamnafasim dardi dil erdiyu bas,

Andin o‘gun yo‘q edi faryodras.

Ohim erur nuqlu sirishkim – sharob,

Hasratu g‘am o‘tina bag‘rim kabob.

Shoir o‘z asarida ko‘plabo‘rinlarda o‘zidan oldingi salaflarga murojaat qilgan, biroq qaysi misra bo‘lmasin unga o‘zining yondashuv va poetik mahoratini kiritgan. She‘riy asar yozishan‘anasi XIV – XV asr turkiy adabiyotda o‘zining avj nuqtasida edi, shu sabab shoirning barcha merosi masnaviy shaklida bo‘lib, bu yo‘nalishda ijod qilish murakkab hisoblanardi. Shoirning mahorati misralardagi tashbehtar, so‘zo‘yinlari va xalq og‘zaki poetik ijodining ham ta‘sirini ifodalab berganida ko‘rinadi.

Sayyid Qosimiyning an‘anaga amal qilishi quyidagilarda ko‘zga tashlandi

“Majma’ ul – axbor” qilay otini,

“Maxzan ul - asror” deyin zotini.

Bu holat Navoiyda ham mavjud:

Hayroti abror ko‘rib zotini,

“Hayrat ul – abror” dedim otini.

Aynan shu holatda Navoiyning Sayyid Qosimiydan keyin yashaganligini hisobga olsak, bu an‘anadan har ikkala shoir ham xabardorligini bilib olish qiyin emas.

Shu jihatdan Haydar Xorazmiyning «Maxzan ul-asror» dostoni falsafiy, ijtimoiy-siyosiy va axloqiy-taʼlimiy qarashlarini bayon etish, kishilarga taʼlim va oʻgit berish maqsadini qisqaroq shaklda bayon etgan boʻlsa, Sayyid Qosimiyning asarida kengroq tarzda namoyon etilgan. Bu oʻz navbatida uning kompozitsiyaga ham oʻz taʼsirini koʻrsatgan. «Majmaʼ ul – axbor» asarini Haydar Xorazmiy asarining aynan tarjimasi deya olmaymiz. «Majmaʼ ul – axbor» dostonida shoir oʻz mahoratini namoyon etishda anʼanaviy obrazlarga ham yangi sifatlarni yuklash orqali alohida yoʻl tutadi. Bunda shoir hikoyatlarni gʻoyaviy taʼsirini oshirishda qahramonlarni turli holatlarda koʻrsatib beradi. Misralarning takrori bu xalq ogʻzaki ijodidagi oʻynoqilikni saqlab qolish maqsadida olib borilganyana bitta usul deyish mumkin.

Xamsachilik anʼanasiga koʻra birinchi dostonlar pand-nasihat ruhida yoziladi. Bundan tashqari birinchi dostonlar dom aruzning sareʼ bahrída yozilishi qatʼiy anʼana hisoblanadi. Barchamizga maʼlumki, aruzning sareʼ matvii makshuf vazn oʻlchovi Nizomiy dostoniga javoban yaratilgan barcha dostonlar uchun asosiy mezon hisoblangan.

Muf-ta-i-lun Gʻ muf-ta-i-lunGʻ fo-i-lun.

Sayyid Qosimiyning «Majmaʼ ul – axbor» asari ham aruzning sareʼ bahrída yozilgan, B.Qosimxonovning «Sayyid Kasimi i ego literaturno-didakticheskie poemoʻ.Avtoreferatkandidatanauk» – avtoreferatida « Majmaʼ ul – axbor» dostoning vazni aniq keltirilmagan.

Mus –taf –i – lunGʻmus – taf – i- lunGʻ muf –ta –i –lun [21]

tarzda deya misollar keltiradi. Biroq, bu vazn qolipi sareʼ bahrining taqteʼsi emas.

Shunga koʻra uni hajman kichik boʻlsada «Xamsa» tarkibidagi ilk dostonlar kabi xamsachilik anʼanasiga koʻra yozilgan deyishimiz mumkin. Bu asarni topilish tarixida ham qoʻlyozmaning 29 beti yoʻq ekanini hisobga olsak, uning tarkibida yana bir doston mavjud boʻlsa, demak dostonlar soni 5 taga yetar edi va biz uni kichik xamsa deya olar edik. Mavzudagi dolzarblik ham asarlarning chuqur tahlil talab ekanini koʻrsatadi.

Nizomiy Ganjaviyning «Maxzan ul-asror» dostoni shakliy tuzilishi haqida adabiyotshunos olim M.Muhiddinov «Komil inson adabiyot ideali» asarida ilmiy adabiyotlarda «Kirish boblar» deb ataluvchi qism bo'yicha quyidagicha fikrlarni bildirib o'tgan: ...Asarning uchdan bir qismini tashkil etuvchi o'n sakkiz bob «muqaddima» bo'lishi mumkin emas. Bu ibora o'rniga mazkur boblarni dostonning birinchi qismi – dunyoqarash qismi deb nomlashni tavsiya etamiz. Zero, aynan shu boblarda muallifning dunyoga va odamlarga munosabati, falsafiy tushunchalari, diniy e'tiqod-u iymoni ayonlashadi. Muallifning islomiy ahkom asosidagi o'y-fikrlari, muhabbat, dil izhori, ifodalangan bo'ladi. Bu qism boblarini birlashtiruvchi xususiyat –vasf, ta'rif va o'zini izhor etish. Bunda keng muhokama, ob'ektiv va tanqidiy munosabat deyarli uchramaydi»²⁷

Sayyid Qosimiy o'z dostonida xamsachilik an'anasiga mos ravishda ulug' insonlar va ustozlarga murojaat qiladi. Ushbu hikoyatlarning biri “Sulton Muhammad G'oziy” da shoiro'z davrining dongdor shohi Sulton Muhammad G'aznaviyga bir hikoyatni bag'ishlaydi. Hikoyatda an'anaviy obrazlar G'aznaviy va uning sodiq mahrami Ayozi asosiy obraz bo'lib kelgan. Hikoyatda Mahmud G'aznaviy (998 – 1030) va uning xos mahrami, quli Ayozi– Abu Najm (1057 – yilda vafot etgan) asosiy qahramonlar hisoblanadi. Uning asosiy g'oyasibilan Sarsuxan bobida tanishtiriladi. Inson bu hayotda yashash uchun kurashadi. Bu hayot qonuniyati unda har kimo'zo'rnini topmoqchi bo'ladi, kimdir bu holatga yetishadi, kimdir esa yo'q. Odamlar xizmati bilan pirga yetadi. Bu jahonda xizmat qilmagan odam nima qiladi? Ertayu–kech xizmat qilib ko'zingni och. Xalq oldida mo'tabar bo'lasan. Hech lahza uning (Ollohning) xizmatidan malollanma. Kim shunday qilsa, najot yo'li qabul bo'ladi. Uning quli bo'lishni kim ixtiyor qilsa, o'zga bilan o'zganing hech nima borasida ishi bo'lmaydi – degan umumiy fikrlardan so'ng, asosiy mavzuga o'tiladi. Hikoyatning mazmuni bilan tanishamiz:

²⁷Muhiddinov M. Komil inson adabiyot ideali. –T.: Ma'naviyat, 2008 y, 84 b.

Gʻaznaviydan nima uchun Ayozni bunchalik yaxshi koʻrishini soʻrashganda, U shunday javob beradi:

Bir qator tuyalar kelar edi, ustiga dur toʻldirilgan sandiq yuklangan edi. Shoh ishora qildi va dediki: Sipohlari dur – javohirlarni talashsin. Xalqning barchasi parokanda boʻldi, ularning hammasi duru gavhar orzusida edi. Shohning oldida Ayozdani boshqa hech kim qolmadi. Unga shoh dedi: Ey, sarfarozi – ulugʻvor sen nima uchun xalq bilan birga ketmading? Dur va javohirlardan ulush olmading. Ayozi aytdi: “Men xizmatda mashgʻul edim, xizmat bilan kishi davlatga yetadi. Tilimning vazifasi sening sifatini aytish edi. Zoting men uchun durru – javohir edi. Qul agar begidan uzoq tursa, tirikligidan oʻlgani yaxshiroq. Kimki, hazrati sultonning koʻngliga yoʻl topsa, uning nigohidan ham izzat topsa boʻladi. Agar bir lahza xudo yodidan chiqsa, tariqat bobida avliyo boʻlolmaydi. Kimki xudoning yodi bilan mudom yashasa, erta- yu kech davlatu izzatda yashaydi. Davlat va boyligimiz uning yodi bilan, agar yoʻq boʻlsa oyogʻimizning holi oʻzingga maʼlum. Sodiqlik talabi har kishiga yor boʻlsa, uni maqsadi nima boʻlsa ham topadi. Kimki tavakkallik bilan yoʻlga qadam qoʻysa, Xudoning iltifoti uning rahbari boʻladi. Agar Ollohning xudovandi boʻlishni tilasang, mendan chinlik bilan bu pandni eshit. Qosimiy hazratni qoʻllovchisi boʻl. Faqru- qanoatni ixtiyor qil – deya hikoyatni yakunlaydi.

Hikoyatdagi asosiy gʻoya har qanday insonni komillikka erishishi uchun nafsni jilovlash va toʻgʻri amallar qilishi lozimligini uqtiradi. Ushbu hikoyat ham yuqoridagi fikrlarimizni tasdiqlaydi, yaʼni shoir shoh va uning xizmatchisi munosabatida rostgoʻylik, sirdoshlik, oʻz podshohiga sodiqlik bilan xizmat qilgan kishiga Ollohning oʻzi mukofot beradi, unga iqtisodiy foyda emas, shohning muhabbati maʼnaviy mukofotdir degan gʻoya orqali oʻz hayot yoʻlidan olgan xulosalarini bayon etadi. Asardagi barcha hikoyatlarda gʻoyalar bir – biri bilan uzviy bogʻliq, ularning gʻoyaviy mundarijasida shoirning oʻsha zamon ahliga va podshohlarga adolatli boʻlishni, xalqning hayotini oʻylashni uqtirishni maqsad qiladi. Bu hikoyatdagi qahramonlar Sulton Mahmud Gʻaznaviy va uning quli

Ayoz obrazi an'anaviy hikoyatlar qahramoni hisoblanib, Alisher Navoiyning "Lison ut – tayr" dostoni yakunidagi "Tavhid yo'li asosidagi munojot" ga keltirilgan Tamsil – misol bo'limida uchratamiz. Unda shoh G'aznaviy va Ayozning "men" va "sen" lik borasidagi suhbatlari o'rin olgan bo'lib, hikoyatga tasavvufiy ma'noyuklatilgan. Har ikkala hikoyatdagi G'aznaviy va Ayoz an'anaviy obrazlar bo'lib, Sayyid Qosimiy bu obrazlarni o'z qahramonlari sifatida olishi, o'sha davr adabiy muhitidan yaxshigina xabardor ekanini bildiradi.

Sayyid Qosimiy o'zining bu to'rt dostoni bilan, didaktik, pand – nasihat ruhida asar yozar ekan, u davr, muhit, podshohlar va oddiy xalq hayotini qiyoslashni she'riy asar orqali yetkazishni maqsad qilib qo'yadi. Haydar Xorazmiy dostonidagi "Hotami Toy" hikoyatida saxovat ulug'lanadi. Karvondagilar va Hotami Toy munozarasi hikoyatda mahorat bilan ochib beriladi. Unda bir xil tuya keltirishganda, Hotami Toy sahovatidan qolganlar izza chekib qoladilar. Ma'vizadagi baytlarda inson komillikka erishuvi uchun xavfli dushman bo'lgan nafs bilan doimo murosasiz bo'lishga chorlaydi.

Yarim oyoq oshki, toparsen nasib,

Yarmini berki yesin bir g'arib.

Me'da tamug'ikim erur dushmaning,

Qonmag'usidir agar ichsa qoning.

Xorazmiy bu obrazga butunlay boshqacha yondoshsa, Sayyid Qosimiy ham o'ziga xos yo'nalishda yondashadi: Hotami Toy hikoyati "Hikoyati podshohi Yaman" nomli hikoya ostida beriladi. Hikoyatlarda shoir aynan Haydar Xorazmiydan o'xshashlik keltirmaydi, chunki bu uning o'ziga xoslik va alohida yo'nalish, uslubi hisoblanadi. Hikoyatda Yaman podshosi xalqning farovonligi yo'lida borini ayamaydigan holda gavdalanadi, biroq u o'zidan am sahovatliroq inson borligini eshitgach, uni yo'q qilish maqsadida bir yigitni yollab shoh

huzuriga yuboradi. Yigitning maqsadini tushungan Hotami Toy unga shunday deydi:

Hotami Toy so‘rg‘anidan angladi,

Lutфу muruvvatda o‘zin chog‘ladi.

Aytdi anga Hotami Toy : - Vayig‘,

Bobi muruvvatdin emas jon darig‘.

Har naki ko‘nglung tilasa andoq et,

Qilma tavaqquf boshimi kes – da ket.

Hotami Toyning bunday javobidan yigit aqli shoshib, yero‘pib undan uzr so‘raydi. U Yaman shohi huzuriga xursand kayfiyatda borib, shoh haqida iliq so‘zlar aytadi. Shoh bo‘lgan voqeadan xabar topgach, yovuz niyati uchun xijolatda qoladi. Alisher Navoiyning “Hayrat ul – abror” dostonida “Hotami Toy va o‘tinchi chol” hikoyati beshinchi maqolatda beriladi. Asosan, saxovatni bosh g‘oya sifatida oladi. Hotam – musulmon dunyosida saxovat timsoli. U haqida behisob asarlar yaratilgan. Kunlardan birida Hotamning suhbatdoshlaridan biri “dunyoda o‘zingdan ham himmatliroq odamni ko‘rdingmi?” – deb so‘raganda, u javob beradi:

Dediki: “ Bir kun qilibon jashni om,

Indab edim bodiya ahlin tamom.

Matbax aro yuz teva qurbon edi,

Qo‘y – u qo‘zi behad – u poyon edi.

Bazm ichidin dahst sori bir nafas,

Kasbi havo aylamak ettim havas.

Sayrda ko‘rdum bir asiri mihan,

Bir quchoq orqasig‘a yuklab tikan.

Shakllangan an‘anaga muvofiq haftaning muayyan kunlarining birida nochor –u nokom, beva- yu bechoralar Hotamning hovlisiga yig‘ilishib, uning uyida taom

tanovvul qilishar edi. Hotamning ko'ngli yolg'izlik tusab, hovli orqasiga o'tib qarasaki, bir chol o'tin yuklab kelar edi, shunday munkillagan ediki, u dastlab Hotamning ko'ziga to'rt oyoqli jonivorday bo'lib ko'rindi. Yaqinlashgach, undan nega Hotamning uyiga borib, gulshani izzatlikka yetmading deb so'raganda, chol uni tanimay:

Sen dog'i chekkil bu tikan mehnatin,
Tortmag'il Hotam Toy minnatin.
Bir diram olmoq chekibon dast ranj,
Yaxshiroq andinki birov bersa ganj -

deb javob beradi.

Hotami Toy:

Ulki bu yanglig' so'zi mavzun edi,
Mendin aning himmati afzun edi

deya uning xijolatli holatini namoyon etadi.

Ilk dostonlar pand – nasihat va misol yo'nalishida olib borilgani uchun Sayyid Qosimiy asarning 14 – so'zboshi, karam haqidagi bo'limda, mumtoz adabiyotda saxovat ramzi bo'lgan Hotami Toy obraziga shoir to'xtalib o'tar ekan, uning bu xislatini ochib berish uchun obrazni yangicha qiyofada ochib berishga harakat qiladi. Hotami Toy obrazini mehr–muruvvat bobida alohida gavdalantirgan shoirni badiiy mahorat egasi deyish mumkin.

Barcha davrlar adabiyotida doimo inson muammosi asosiy o'rin tutib kelgan. Insonni ulug'lash, uning ma'naviy barkamolligi, bunyodkorligini ko'rsatish birinchi o'rinda turgan. Badiiy asarlar qanday mazmunni ifodalamasin, qaysi janrda va qay uslubda yozilgan bo'lmasin, ularda markaziy masala qilib inson qo'yiladi, uning ma'naviy dunyosi tasviri birinchi o'rinda turadi. Sayyid Qosimiy dostonlarining markazida ham inson masalasi, uning jamiyatdagi o'рни masalasi muhim o'rin tutadi. Shoir o'zining inson va uning ulug'vorligi haqidagi gumanistik qarashlarini turli ibratomuz hikoyalar orqali ifoda etib, asosiy fikrni

o‘zi yashagan davrdagi ijtimoiy- siyosiy masalalarni ko‘tarib chiqishga qaratadi. Dostonlarning kompozitsion strukturasini, g‘oyaviy-tematik mazmuni qator obrazlar silsilasi ana shu ulkan maqsadni amalga oshirishga xizmat qildirilgan.

Dostonning kirish qismida shoir tabiatning yaratuvchanlik kuchi, yer yuzining paydo bo‘lishi haqida so‘z yuritib, dunyodagi barcha mavjudotlardan eng oliysi va eng qudratlisi inson ekanini alohida takidlab uni e‘zozlash, uning yaratuvchanlik kuchini va aql- idrokini tinchlik, go‘zallik va baxtli hayot uchun yo‘naltirmoq lozimligini badiiy bo‘yoqlar bilan ifoda etganligi bejiz emas, albatta. Shuning uchun Sayyid Qosimning deyarli hamma dostonlarida ana shu bunyodkor buyuk insonni kuylash, uning ma‘naviy va axloqiy yetukligi masalasiga alohida e‘tibor berish asosiy mavzuni tashkil etadi.

Qo‘lyozma tarkibidan o‘rin olgan birinchi asar – “Majmaa ul- axbor”dir. Dostonning so‘zboshisi, ya‘ni “Sar suxan” bobida shoir ijtimoiy- siyosiy va axloqiy-talimiy fikrlarini bayon etib, bu fikrlarni chuqurlash, asoslash uchun kichik hajmdagi hikoyalarni keltiradi. Boblarda ilgari surilgan g‘oyalar ularda keltirilgan hikoya bilan uzviy bog‘liq va ma‘lum bir muammoni yoritishga qaratilgan. Bunday badiiy uslub Qosimdan ilgari yashab ijod etgan shoirlar ijodida ham qo‘llanganligi ma‘lum. Masalan, Farididdin Attor, Nizomiy Ganjaviy, Jaloliddin Rumiy, Xusrav Dextaviy, Sadiy Sheroziy, Abdurahmon Jomiy, Haydar Horazmiy va boshqa bir qator shoirlar va adiblar turli xarakterdagi hikoyalarning mohir ustalari hisoblanib kelgan. Ular forma jihatidan kichik bo‘lsa- da, mazmundan salmoqli bo‘lgan hikoyalar yaratib, o‘zlari yashab ijod etgan davrning muhim tomonlarini badiiy jihatdan yaxshi aks ettira olganlar.

Nizomiyning «Maxzan ul-asror»i jami 2264 baytdan (ayrim manbalarda 2244 bayt²⁸) iborat. Haydar Xorazmiyning shu nomdagi dostoni 23 bobni o‘z ichiga oladi. Hajmi 615 bayt (ayrim manbalarda 639 bayt²⁹)dan iborat. An‘anaga muvofiq, doston uch tarkibiy qismdan tashkil topgan: muqaddima, asosiy qism va

²⁸ Абдуллаев Н. Хайдар Хорезми и его «Махзан ул-асрар». Avtoreferat kon. nauk. – Toshkent, 1974.

²⁹ Vohidov R., Eshonqulov H. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. –T.: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi. Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006, 169-bet.

xotima. Muqaddimaning oʻzini shartli ravishda ikkiga boʻlish mumkin. Birinchi muqaddima Alloh hamdi, paygʻambar natʻi, xalifalar taʼrifidan iborat. Ikkinchi muqaddima esa Sulton Iskandar madhi, musannifning vasfil – holi kabi masalalarga bagʻishlangan. Ushbu muqaddima qism jami yetti bobni oʻz ichiga oladi. Nizomiy oʻz asarini Qurʼonning ilk oyati bilan boshlaydi. Bu asarga nazira bitgan aksariyat shoirlar qatori Haydar ham bu anʼanani saqlab qolgan:

Nizomiy Ganjaviy:

Bismillohir rahmonir rahim,
Hast kalidi dari ganji hakim.

Haydar Xorazmiy:

Bismillohir rahmonir rahim,
Fathu zafar oyatidur, ey hakim.

Qiyoslash uchun “Majmaʼ ul axbor” dostoninig ilk baytini ham keltiramz:

Bismillohir rahmonir rahim,
Fotihayi fath erur, ey hakim.

Dostonning asosiy qismi 16 bobdan tashkil topgan. Haydar Xorazmiy Nizomiy Ganjaviydan farqli oʻlaroq, dostonda avval hikoyat, undan soʻng shu hikoyadan kelib chiqadigan xulosa va fikrlarni mavʼiza shaklida bayon etadi, maʼlum bir masala yuzasidan falsafiy qarashlari hikoyatlarda oʻz aksini topgan. Ularning mavzu, mazmun doirasi ham anchayin keng boʻlib, baʼzilari Nizomiy Ganjaviyning «Maxzan ul-asror»iga ancha yaqin tursa, baʼzilari tamomila yangidir. Asosiy qism 8 hikoyat, 5 mavʼiza, 3 maqolotdan tashkil topgan.

Mavʼiza – oʻgit, qissadan hissa boʻlib, oldingi keltirilgan hikoyatdagi voqeadan kelib chiqadigan xulosa, oʻgit pand-nasihat ruhida ifodalanadi. Maqolotlar mavʼizadan farqli oʻlaroq maʼlum bir mavzuga bagʻishlanadi. Maqolotlarda u insoniy sifatlardan – pastkashlik, ochkoʻzlik, nafrat, himmat,

saxovat, iymon, e`tiqod haqida so`z yuritadi. Murojaat usuli maqolotlarda ustunlik qiladi.

Haydar Xorazmiy she`riy hikoyatlarning mohir san`atkori sifatida kichik hajmli hikoyalarda katta va muhim bo`lgan biror mavzuni yoritishga, xarakterli obraz va portretlar yaratishga muvaffaq bo`ladi. Ushbu hikoyatlarda biz Hotami Toy, Bahlul, Mahmud G`aznaviy, Sulaymon, Ya`qub va Yusuf kabi a`anaviy obrazlar bilan birga, yangi hayotiy obrazlarni ham ko`ramiz.

Qosimiy ham o`z salaflarining an`analarini davom ettirib, ana shu uslubni, ya`ni hikoya janridan keng iste`foda etish yo`lini, o`zi yashab ijod etgan ijtimoiy hayotning muhim masalalarini yoritishda jamiyatdagi ayrim illatlarini tanqid qilish uchun asosiy vosita qilib oldi va hikoya janrining voqeylikni aks ettirishdagi imkoniyatlariga katta e`tibor berdi.

Dostondagi hikoyalarni syujet va kompozitsiya jihatidan shartli ravishda ijtimoiy-siyosiy xarakterga ega bo`lgan hikoyalar, axloqiy- ta`limiy xarakterdagi hikoyalarga bo`lish mumkun.

Shoir o`zining ijtimoiy - falsafiy qarashlarini jamiyatdagi turli tabaqalarga mansub kishilar – shohlar, davlat arboblari, olimlar, darvishlar, oddiy xalq vakillari va xalq og`zaki ijodida ko`p talqin etilgan afsonaviy va tarixiy shaxslar hayotida ro`y bergan ibratli voqea va hodisalarni bayon etish orqali ifodalasa, ikkinchi guruh hikoyalarda mehnat va ijodkorlik, mardlik va qahramonlik, sevgi va vafo, himmat va saxovat, rostgo`ylik va poklik kabi insoniy olijanob fazilatlar ulug`lanib, ularga qarama-qarshi bo`lgan tekinxo`rlik va ta`magirlik, qo`rqoqlik va xoinlik, xudbinlik va manmanlik, zulm va razolat kabi inson psixologiyasi uchun zararli bo`lgan illatlarni aniq tanqid ostiga oladi.

“Majma ul-axbor” dostonidagi “Shox Qubod”, “Rishta kasaliga muhtalo bo`lgan shox”, “Xo`ja va gado”, shu mavzudagi hikoyalar sirasiga kiradi. “Sar suxan”da shoir davlat boshqarishda adolat va muruvvat lozim degan g`oyanin ilgari suradi:

Adlu saxovat bila kim bo`lsa yor,

Dunyoyu uqvoda topar e'tibor,
Ganju zafar birla bo'lar hamnishin,
Tark qilur nafsu havoning ishin.

Kimki adolat va saxovat bilan ish tutsa, manmanlikka berilmasa ukishining nomi abadiy yaxshi insonlar qatoridan joy oladi:

Elga rioyat bila mashg'ul bo'lur,
Barcha ulus oldinda maqbul o'lur.
Adl bila dunyini ma'mur etar,
Xalq ichidan zulm otini dur etar...

Insonda adolat va saxovat nishoasi bo'lsa, el uning bosgan izining tuprog'ini ko'ziga suradi deydi shoir:

Kimdaki bor adlu saxodin asar,
Bosqon izini xalq qilur toji sar...

Qosimiy so'z boshida bayon qilgan fikrini tugallab, hikoyaga o'tishida ularni birining ikkinchisiga bog'liqligini ko'rsatib:

Tolib esang naqlu rivoyotg'a,
Mustami ul ushbu hikoyotg'a...

deb, so'z boshidagi fikrini mustahkamlamoqchi va isboti dalil sifatida hikoya keltiradi: Shox Qobul o'limi oldidan valiahdi – o'g'liga adolatli va xalqparvar bo'lish to'g'risida nasihat qiladi:

Qildi vasiyat ularinda Qubod,
Mandin oling ushbu vasiyatni yod.
Shox atalg'ong'a viloyat kerak,
Holi raiyatga – raiyat kerak.
Shoxki raiyatga solur ko'p xiroj,
O'zi talar, yog'i emas ehtiyoj...

Shoh o‘z xalqiga zulm qilsa, og‘ir to‘lovlar bilan uni qiynasa, yovning hojati yo‘q, o‘z elini o‘zi talagan bo‘ladi, deydi. O‘sha davrda bunday fikrni juratli, xalqni sevgan kishigina ayta oladi.

Shoir va u yashagan davrdagi barcha progressiv fikr yuritgan kishilar xalqning yaxshi hayot kechirishlari hukmron sinflarning adolatli va xalqparvar bo‘lishi bilan bog‘liq deb tushunganlar. Shuning uchun shoh Qubod farzandiga nasihat qilar ekan el- yurtga mehribon, g‘amxo‘r, xalq manfaati uchun har qanday mushkulliklarni oson qiladigan shohgina mamlakatda adolat binosini qura oladi degan fikrni bildiradi:

Bo‘lsa kerak mulk ishidin boxabar,
Qilmasa nokas kishini mo‘tabar.
Tutsa faqirlar elini u baland,
Zulm- u sitam qilmasa har xudpisand...

Qosimiy xalq bilan shoh munosabatlarini cho‘pon bilan uning podasiga o‘xshatadi:

Qo‘yni kutar yozda olg‘ir shubon,
Say qilur topsa bo‘ridin amon.
Hamla qilur anga bo‘lsa sheri nar
Hammasina qarshi qilur jon sinar.
Ulki yuzin ko‘zga qilur u harom,
To qo‘yni qilmasa simix, topsa kom...

Shu mavzu bilan bog‘liq mavzularni fors-tojik adabiyotining yirik namoyondalari Sa‘diy Sheroziyning “Bo‘ston” asarida, turkigo‘y shoir Sakkokiy ijodida, shuningdek, Alisher Navoiyning “Xamsa” asarida, XVI asrda yashab ijod etgan shoir Xo‘janing “Gulzor” va boshqa asarlarida ko‘plab uchratish mumkin.

Said Qosimiyning “Majma‘ ul-axbor” asarida saxovat va himmat masalasi ham alohida o‘rin egallaydi:

She‘r sifat ur dag‘i hey dag‘al,

Tulki kibin qilma sen o‘zingni shal.
Bo‘tayi himmat ichinda jo‘sh qil,
Hosil etib barcha bila no‘sh qil.
Har naki elinga kirar, ey karim,
Tangri uchun berki yesun bir yetim.
Kimki yig‘ar dunyosida ganju mol,
Qolmas aning oxirida juz vubol.
Olsa kishi molu jahonni bazo‘r,
O‘zi bila eltgusi yo‘q ba go‘r.
Chunki kechar oxiri bu ro‘zg‘or,
Qolsa kerak yaxshi oting yodgor.
Erga kerak himmatu qushga qanot,
Yetsa basar chashmayi obi hayot.
Nafsung erur tulkuvu sen shersen,
O‘zing urub dam o‘zung o‘q yersen.
Yegilu bergil naki berdi xudoy,
Hosili dunyoga urub pushtpoy.
Bo‘lmadi chu marda barobar baxil,
Ramzu rumuzung‘a yetar bu dalil.
Davlatidur bo‘lsa kishi neknom,
O‘lsa o‘zi, qolur oti mustadom.
Qosimiy, gar himmating o‘lsa baland,
Bo‘lma o‘tar dunyosina poyband³⁰.

Qosimiy himmat haqidagi qarashlarining amaliy ifodasi sifatida Yaman podshosi haqidagi hikoyani keltiradi. Unda Sharq adabiyotida saxovat va himmat timsoli sifatida shuhrat qozongan Hotam Toy obrazi ham qatnashadi. Bu hikoya, ayrim kichik tafovutlarni istisno etgan holda, Sa‘diyning “Bo‘ston” asarida ham mavjud ekanligini qayd etish lozim.

³⁰ Мажмаъ ул-ахбор, 54а бет

Shu o‘rinda eslatib o‘yish lozimki, Sharq adabiyotidagi eng mashhur obrazlardan biri bo‘lgan Hotam Toy bilan bog‘liq sujet Nizomiy “Maxzan ul-asror”ining deyarli barcha naziralarida mavjud. Shu jumladan, Sayyid Qosimiyning dostoni uchun ilhom manbai bo‘lgan Haydar Xorazmiyning “Maxzan ul-asror” dostonida ham bunday hikoyatni uchratish mumkin.;

Mashhur rus sharqshunos olimi E.E.Bertels o‘zining «Nizomiy» monografiyasida Nizomiy Ganjaviyning «Maxzan ul-asror» dostoniga yozilgan naziralar haqida ma’lumot berib, Xoju Kirmoniyning «Ravzat ul-anvor» hamda Haydar Xorazmiyning «Maxzan ul-asror» dostonlari haqida ham to‘xtaladi. Ikkala asarda mavjud bo‘lgan Hotami Toy haqidagi hikoyatni tilga olib Mavlono Haydarning Xoju dostonidan ham manba sifatida foydalanganligini qayd etadi [... 213].

Haydar Xorazmiy dostonidagi hikoyat 22 baytdan iborat bo‘lib quyidagi bayt bilan boshlanadi:

Qofilae barri arabdin magar,
Qildi bani Tay hashamina guzar.³¹

Hikoyatning muhtasar mazmuni quyidagicha:

Bir karvon Hotam dafinasi oldidan o‘tayotib, karvon ahlidan bir kishi dafinaga kiradi va Hotam ruhiga murojaat etib, undan ziyofat qilishni so‘raydi. Shu lahzada karvondagi eng semiz tuyalardan biri yiqilib, xirillay boshlaydi. Uni so‘yishdan boshqa chora qolmaydi. Tuyani so‘yib, karvon ahlini ziyofat qiladilar. Shunda boyagi kishi Hotamga ta’na qilib, uni o‘z moli bilan ziyofat qilganlikda ayblaydi. Ertasi kuni tong sahardan bir arab tuya etalab keladi. Bu tuya kecha so‘yilgan tuyaga ikki tomchi suvdek o‘xshash edi. Tuyani olib kelgan kishi o‘zini tanishtirib, Hotam avlodidan ekanligi, shu kecha Hotam uning tushiga kirib bir tuyani falon joyga olib borishni tayinlaganligini aytadi. Hotam karvon ahliga

³¹ Asrlar nidosi. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1982. 24-bet.

berilishi lozim bo'lgan tuyaning belgilarini aniq ta'riflagan edi. Hotamga ta'na qilgan kishi voqeadan hayratga tushib, o'z ishidan pushaymon qiladi.

Sayyid Qosimiy o'z dostonidagi "So'z boshi"da shoir karam va saxovat bobida so'z yuritib:

Kimga karam bo'lsa azaldin nasib,
Andin emas judu saxovat g'arib.
Har na nasib etsa anga biru bor,
Yo'qsuzu o'qsuzga qilur ul nisor.

Xullas, inson tabiatning eng ulug' va qudratli zoti ekan, uning aql-zakovati esa buyuk bir kuchdir. Ana shu kuchdan inson qanchalik to'g'ri foydalansa, unga shunchalik baxt-saodat hamroh bo'ladi. Insonning mehnati bilan vujudga kelgan samaralardan butun mavjudot va maxluqot olami uning himmati tufayli bahramand bo'lmog'i kerak, - degan xulosa kelib chiqadi:

Kimki saxovat bila odat qilur,
Ertavu kech kasbi saodat qilur.
Olami ma'noda bo'lur ul amir
Kimki, o'zin ko'rdi bu yo'lda faqir...³²

Yaman podshohi o'zining butun molu dunyosini xalqning farovonligi yo'lida sarf etadi. Raiyat uning bu ishidan behad xursand bo'ladi. Podshoh o'zidan ham saxovatliroq kishi Hotamtoy ekanligidan xabar topgach, hasad qilib, undan intiqom olish rejasiga kirishadi:

Aytsa kishi Hotami Toyi so'zin,
Ko'rar edi yuz ulush ortiq o'zin.
Aytur edi Hotami Toy kim bo'lur?
Men borida da'voyi ehson qilur?
Yo'qtur aningdek anga bir molu ganj,
Tortsa aning yo'lida ul dardu ranj.
Berur edi elga karam dodini,

³² Мажмаъ ул-ахбор, 576 бет

Qilsa tay ul Hotami Toy odini,
Fikr qilib ko‘rdi bu ishini yirog‘,
Mardi fidoyig‘a berib bir ulog‘.
Toki borib qilsa adam Hotami,
Bo‘lsa o‘zi lutfu karam hotami...³³

Hotamni o‘ldirish uchun shohga yollangan bir fidoyi yigit maqsad yo‘liga tushadi. U Tay qabilasiga yetib borganida uning qarshisidan bir kishi chiqib keladi. U kishi yigitni beqiyos lutfu karam bilan kutib oladi va uni mehmonga taklif etadi. Ziyofat chog‘da mehmon bu yurtga karam va saxovat bobida shuhrati ketgan Hotam Toyning qatl etgani kelganligini bayon etadi.

So‘rdiki, sen kimsanu oding nedur,
Ushbu qabilada sifoting nedur.
Aydi javobinda o‘shul nekmard,
Koni saxovu karamu ahli dard
Kim, muni so‘rmoqqa muroding nedur
Basta ishing bori kushoding nedur.
Aylayin jon bila hosil ani,
Mahrami sirring agar etsang mani...³⁴

Mezbon Hotam Toyning o‘zi bo‘lib, yigit bundan bexabar edi. Mehmonning bu so‘zlariga u shunday javob beradi:

Aydianga Hotami Toyi: vayig‘,
Bobi muruvvatdin emas jon darig‘.
Har naki ko‘nglung tilasa andoq et,
Qilma tavaqquf boshim kes-da ket.
Turma dame yo‘lg‘a qadam qo‘ybu dam,
Bilsa xaloyiq senga etkay alam...³⁵

³³ Мажмаъ ул-ахбор, 58а бет

³⁴ Ўша асар, ўша бет.

³⁵ Ўша асар, ўша бет

Mehmon bu soʻzni eshitib Hotam Toyning karam va saxovat bobida haqiqatda tengi yoʻqligiga amin boʻladi. Yovuz niyatidan qaytib xijolat bilan shunday deydi:

Lutфу saxovatda sazovarsen,
Xalq degancha yuz ulush borsen.
Oz boʻyinga lutфу karamning toʻni,
Bu ish uchun tangri yaratdi seni.
Gar karaming qildi mani sharmsor,
Qoʻyma muningdek mani majruhu zor,
Tangri uchun ayla senichingni sof,
Xoʻrdaye keldi esa ayla maof.
Siyna basiyna qoʻyibon dil badil
Mardi juvonmard anga qildi behil.
Yoʻlgʻa qadam qoʻydi qilib xayrobod,
Bordi Yaman mulkına xushnudu shod,
Yetdi eson xonu begi qoshina,
Aydi nakim tushib edi boshina,
Qildi duovu sifaati oli Tay,
Aydiki: Ey vorisi Jamshidu Kay.
Hotami Toyiga tegar lofi kud,
Judgʻa qoshidaaning ne vujud.
Munsif oʻlib podshahi mulki zod,
Qildi duo birla bani Tayni yod...³⁶

Mehmon Hotam Toydan uzr soʻraydi, u bilan xayrlashib, oʻz yurtiga qaytib boʻlgan voqeani shohga soʻzlab beradi. Shoh ham bu voqeadan hayratda qoladi va oʻzining yovuz niyatidan aziyat chekadi³⁷.

2.2” Gulshani roz” masnaviysining gʻoyaviy-badiiy xususiyatlari

³⁶ Мажмаъ ул-ахбор, 58а бет

³⁷ Қосимхонов Б, Саййид Қосимийнинг адабий-дидактик дostonлари,- Тошкент, “Фан”, 1987.

Sayyid Qosimiy qalamiga mansub “Gulshani roz“ asari mazmun jihatidan axloqiy- ta’limiy yo’nalishdagi dostonlar qatoridan joy oladi. Fors- tojik adabiyotida “Gulshani roz“ nomli asarlar yaratilgani tarixiy manbalardan ma’lum. Shulardan biri Maxmud Shabistariyning (1320 - yili vafot etgan) bizgacha yetib kelgan “Gulshani roz “ dostonidir. Bu asar mazmunan tasavvufga oid, shaklan o‘zaro savol-javob asosida qurilgan. Asar asosan tasavvuf ta’limotiga oid irfoniylar qarashlarni targ‘ib va tashviq qilish maqsadida tuzilgan bo‘lib, ana shu ta’limot bilan qiziquvchilarga mo‘ljallangan.

Sayyid Qosimiyning “Gulshani roz“ asari ham ma’naviy kamolit masalalariga bag‘ishlangan bo‘lsa-da Maxmud Shabistariyning dostonidan mazmun jihatidan farq qiladi. Shoir o‘z asarining asosiy g‘oyaviy yo‘nalishini axloq mavzuiga bag‘ishlaydi. Unda odob, kamtarlik va saxovat, to‘g‘rilik va poklik kabi insoniy fazilatlar ulug‘lanib jamiyat uchun ana shunday ijobiy xususiyatlarni o‘zida mujassamlantirgan kishilarni tarbiyalash masalalari shoirga xos badiiy uslubda bayon etiladi. “Gulshani roz“ o‘zining kompozision tuzulishi bilan shoirning boshqa dostonlaridan ajralib turadi. Doston tarkibi xilma-xil she’riy janrlardan tuzilganligining o‘ziyoz fikrimizning dalilidir. Asarda har bir bobga bitta g‘azal keltirilib, shoir uni kuyga solib o‘qish kerakligini ta’kidlaydi. Kuydagi qayta- qayta takrorlanib keladigan band esa asar mavzularini ajratish vositasi, ya’ni maxsus badiiy usul vazifasi sifatida qo‘llanilgan:

Nag‘maye qil so‘z bila savtu amal,

Mutrib aytg‘il sen o‘qib bu g‘azal.

Asar o‘n bobdan iborat bo‘lib, ularning har biriga bittadan g‘azal keltirilgan. Doston umumiy syujet va yaxlit kompozisiyaga ega emas. Mavzu nasihatimiz misralar orqali birma-bir tartib bilan bayon qilib boriladi. Avval hamd, keyin na’t va sharq poeziyasi uchun an’anaviy kirishdan so‘ng asarni Jalaliddin Sayyid Mazidga bag‘ishlanganligi haqida gapiriladi. So‘ngra uni madh etuvchi maxsus bob keladi. Bu bobda shoir o‘zining nochorligini eslatib, Sayyid

Mazziddan yordam so‘raydi. Shoirning iltijosi quyidagi satrlarida o‘zining yorqin ifodasini topgan:

Luft qilib qilsa inoyat manga,
Marhamati bo‘lsa himoyat manga.

So‘zlasa sulton qoshida so‘zumi,
El ichida qilsa qizil yuzumi,

Davlatidin olsa manga siymu zar,
Xil’atu dastoru kulohu kamar.

O‘zi dag‘i qilsa inoyat bo‘lur,
Harna qilay desa qo‘lidin kelur:

Royi agar kelsa dag‘u ixtiyor,
Mulki viloyatda base vaqf bor.

Bersa olardin manga o‘n ming diram,
Bo‘lg‘usi yo‘q bir tasuvu habba kam.

Layiq emasturki manimtak faqir
Bo‘lsa aning davrida g‘amga asir.

Shundan keyin o‘nta bob birma- bir bayon etiladi. Hayotni sevish, undan iloji boricha ko‘proq bahramant bo‘lish, sevgi bilan mehnat hayotning asosini tashkil etishi, kishi pok rostgo‘y, mehnatsevar, sabr-toqatli, qanoatli va jamiyatga qanchalik ko‘p yaxshilik qilsa shunchalik baxt-saodatga erishajagi kabi mavzular haqida so‘z yuritilib, ular doston tematikasining asosini tashkil etiladi. Doston xotima bilan tugaydi. Shoir unda inson uchun berilgan hayot abadiy emas, shuning uchun undan imkoni boricha yaxshi foydalanmoq, har bir inson o‘z

umrini yaxshilik qilish uchun bag'ishlamog` va o'zidan keyin yaxshi nom qoldirish uchun harakat qilmog`i kerak degan g`oya bilan kitobini yakunlaydi:

Odamidin qolsa kerak so'z xalaf,
So'z bila hosil etar er sharaf,

Toki jahon bo'lg`ayu laylu nahor,
Qolg`usidur ushbu so'zim yodgor...

Qosimiy inson uchun davlat bilan izzat, ya'ni amal, mansab abadiy emas, holbuki bular hech kimga vafo qilmagan. Shuning uchun inson o'z amali va boyligidan mag'rurlanib o'zgalarni kamsitmasligi, kishilardagi bu salbiy xususiyatlar ularni xarob qilishi mumkinligini alohida ta'kidlaydi. Shoir kishilarni hayotga muhabbat, sevgiga sadoqat, tabiat go'zalliklaridan bahramand bo'lishga chaqiradi.

Dostonda to'g`rilik, rosgo'ylik insonning eng go'zal fazilatlaridan rkanligi alohida qaid etiladi:

Rost kerak odamig`a e'tiqod,
Egri kishi topmadi hargiz murod,
O`q kibin har kishikim bo'lsa tuz,
Tangri qilib barcha ishini to'kuz.
Egri yig`och hokiga loyiq degul,
Otqu kibi yog`a muvofiq degul.
Rostlik uza sangi tarozuni tuz,
Solma kishi ahlu ayolig`a ko'z...

Egri o'sgan daraxt bog`ni bezay olmaganidek, to'g`rilik yo'lidan ozgan odan ham jamiyatni bezay olmaydi, u insonlar uchun foyda o'rniga zarar keltiradi. Rostlik, to'g`rilik bilan hayot kechirish zarurligini uqtirgan shoir egri ishlardan saqlanish kerakligiga e'tiborni alohida qaratadi. Bu bilan u mehnatkash xalqqa zulm o'tkazayotgan hokim, bek va boylarni adolat va to'g`rilikka chaqiradi:

Qilma dili xastani sen dardmand,

Elga ketur votiri bir mustamand.

Boq ko'ngul ka'basina ey joni jon,

Kim buturur davlati ikki jahon...

Shoir asarining asosiy g'oyasini insonlar o'rtasidagi munosabatlarni normallashtirishga qaratib, ular orasidagi nizolarga sabab bo'ladigan qarama-qarshiliklarni, insoniy fazilatlarni kamol toptirish orqali erishish mumkin degan xulosa keladi.

3-BOB: Sayyid Qosimiy masnaviylari va o'zbek adabiyotida nomanavislik taraqqiyoti

3.1 O'zbek adabiyotida nomanavislik an'anasi va Sayyid Qosimiy masnaviylari ("Haqiqatnoma").

.Sayyid Qosimiy o'z ijodiy mahoratini noma janrida ham sinab ko'rganligi va bu janr taraqqiyotida o'zining munosib hissasini qo'shganligini shoirning "Haqiqatnoma" va "Sadoqatnoma" asarlari misolida ko'rish mumkin. Noma janrining paydo bo'lishi borasida V.M Jirmunskiy, Hodi Zarif, V.Abdullayev, G.Begdili, Hamid Arasli, B.Valixo'jayev va bir qator olimlar asarlarida mukammal bayon etilgan. Noma janrida yaratilgan asarlarni tadqiqotchilar kompozitsion tuzilishi va g'oyaviy mazmuniga ko'ra bir necha turkumga ajratadilar. O'zbek adabiyoti tarixida tematik jihatdan bir-biriga yaqin janrda yozilgan Xorazmiyning "Muhabbatnoma", Xo'jandiyning "Latofatnoma", Yusuf Amiriyning "Dahnoma", Sayyid Ahmadning "Taashshuqnoma" kabi asarlarni bilamiz. Sayyid Qosimiyning "Haqiqatnoma" si ham shular jumlasiga kiruvchi masnaviy janrda yozilgan asardir. Sayyid Qosimiy o'z salafлари asarlari bilan yaqindan tanish bo'lib ularning ijodlaridan foydalanganligi tabiiydir. Sayyid Qosimiyning "Haqiqatnoma" dostoni g'oyaviy mazmuni va kompozitsion tuzilishi jihatidan Ozarbayjon shoiri Hoja Imodning axloqiy-ta'limiy hikoyalardan tashkil topgan "Muhabbatnoma" (1322-1331yil) asariga juda yaqin turadi. Shoir "Haqiqatnoma" asarida o'zi yashagan feodal jamiyatdagi adolatsizlik, zulm, zo'ravonlik, din arboblari va boylarning jirkanch kirdikorlarini fosh etadi. Yuqorida ko'rib o'tganimizdek "Gulshani roz", "Haqiqatnoma" va "Ilohiynoma" masnaviylari ayrim jihatlariga ko'ra Xorazmiy "Muhabbatnomasi va shu an'ana ta'sirida yaratilgan asarlarga o'xshaydi. "Gulshani roz"ning o'n bobdan iborat ekanligi va turli janrlardan foydalanilganligi, "Haqiqatnoma" va "Ilohiynoma"ning vazni shunday mushtarak xususiyatlar sirasiga kiradi. "Haqiqatnoma" masnaviysi esa aynan "Muhabbatnoma" vaznida yozilganligi asarning o'zida ham qayd etilgan.

"Ma'oniyl durini olamg'a yoysam,

Muhabbatnomaning bahrinda aysam.

Biroq "Muhabbatnoma" atamasi o'rta asrlarda umuman noma janri ma'nosida ham tushunilgan. Binobarin Sayyid Qosimiy ijodida nomanavislik an'anasi ta'sirini ham e'tirof etmaslik mumkin emas.

"Noma" so'zi fors-tojik tilidan olingan bo'lib, xat maktub degan lug'aviy ma'noni ifodalaydi. Adabiyotshunoslik atamasi sifatida bu so'z ikki xil istilohiy ma'noga ega:

1. Yirik hajmli epik asarlar tarkibidagi timsollarning bir-birlariga yozgan maktublari. "Xamsa" (Nizomiy, Amir Xusrav, Jomiy, Navoiy) tarkibidagi dostonlarning ko'pchiligida bunday kompozitsion unsumni uchratish mumkin. Xususan, Xusravning (Farhodning) Shiringa maktubi, Shirinning javob maktubi, Majnun va Laylining o'zaro yozishmalari va hokazo.

2. Oshiqning o'z ma'shuqasiga turli ruhiy holatlarda yozgan ishqiy maktublari mazmunidagi asarlarga nisbatan "noma" janr atamasi sifatida qo'llanadi. Mazkur janrning ilk nishonalari arab va fors-tojik adabiyotida yaratilgan. Fors-tojik tilidagi ilk "noma"lar XIV asr boshlarida yaratilgan Avhadiy Marog'aviyning «Dahnoma» hamda kirmonlik Xoja Imodiddin Faqehning «Muhabbatnoma» asarlaridir. Turkiy adabiyotda mazkur janrning ilk namunasi Xorazmiyning "Muhabbatnoma" asaridir. "Latofatnoma" (Xo'jandiy), "Taashshuqnoma" (Said Ahmad), "Dahnoma" (Yusuf Amiriy), "Sadoqatnoma" (Sayyid Qosimiy) asarlari ham noma janri namunalari sanaladi.

Noma janrining asosiy belgilari

- asosiy qism oshiqning ishqiy maktublari mazmunida bo'lishi;
- aruzning hazaji musaddasi mahzuf vaznida yozilishi;
- nomalar masnaviy shaklida bo'lishi.

Adabiyotshunoslikda "noma" so'zi qatnashadigan, boshqa mavzularda yozilgan (sayohatnoma, tarixnoma, yodnoma, pandnoma) asarlarga nisbatan ham "noma" janr atamasini qo'llash hodisasi kuzatiladi [1. 136]. Biroq keyingi davr adabiyotshunoslari bu fikrni asosli ravishda inkor etishgan [1. 136].

«Muhabbatnoma» asarining yozilgan yili quyidagicha berilgan:

Bu daftarkim bo'lubdur Misr qandi,

Yeti yuz elli to'rt ichra tugandi. (H. 754 – melodiy 1353)

«Muhabbatnoma»ning ikki - arab va uyg'ur yozuvidagi qo'lyozma nusxalari mavjud. Uyg'ur yozuvidagi qo'lyozma 1432-yil Mir Jaloliddin degan kishi topshirig'i bilan Boqi Mansur baxshi nomli kotib tomonidan ko'chirildi.

Arab yozuvidagi nusxasi 1508-1509 yillarda ko‘chirilgan. Ikkala nusxa ham Londondagi Britaniya muzeyida saqlanadi.

«Muhabbatnoma»ning to‘liq nusxasi 473 baytdan iborat bo‘lib, shundan 317 bayti o‘zbek tilida, 156 bayti fors-tojik tilida yozilgan. Asar aruzning hazaji musaddasi mahzuf (mafoiylun mafoiylun fauvlun) va hazaji musaddasi maqsur (mafoiylun mafoiylun mafoiyl) vaznlarida yozilgan:

Ulu

g‘ tangri otini yod qildim,

«MuhabbatnoG‘ma»ni bunyoG‘d qildim.

V – – – G’ V – – – G’V – –

Ko‘ngul bahrinda ko‘p gavharlaring bor,

Ochunda poG‘rsiy daftarG‘laring bor.

V – – – G’ V – – – G’ V – ~

Asar muqaddimasi hamd, na‘t, Muhammad Xo‘ja bilan ko‘rishgani bayoni, g‘azal (1 ta forsiy, 3 ta turkiy), masnaviy, Muhammadxo‘ja madhi, vasful hol kabi qismlardan tashkil topgan bo‘lib umumiy hajmi 102 bayt.

Asarning asosiy qismini 11 noma tashkil etadi. 4-8-11-nomalar fors-tojik tilida, qolgan sakkiztasi o‘zbek tilidadir.

Turkiy nomalarning hajmi 22-24 baytdan (faqat 3-noma hajman kichik – 14 bayt, biroq unga bir g‘azal ilova qilinadi), forsiy nomalar esa 34, 36 va 29 baytdan tashkil topgan. Har bir nomadan keyin soqiyga murojaat mazmunidagi uch baytlik masnaviy keltiriladi. E‘tiborli tomoni masnaviylarning oxirgi bayti aynan takrorlanadi:

Saburdin yaxshi yo‘qtur pasha qilsam,

Bu yo‘lda sabr yo‘q andesha qilsam.

Nomalarning o‘zi ham masnaviy she‘riy shaklida yozilgan. Noma va masnaviylarning umumiy hajmi 322 bayt.

Asar munojot, qit‘a, “xotimat ul-kitob”, hikoyat (forsiy), “Iltimosin aytur” hamda fard bayt bilan yakun topadi. Ularning umumiy hajmi 49 bayt.

Xorazmiy o'z «Muhabbatnoma»sida bir necha janrlarda ijod qilganini ko'rsata olgan.

Mavjud tadqiqotlarning aksariyatida «Muhabbatnoma» dunyoviy ruhdagi, undagi ishq esa hayotiy, insoniy ishq sifatida talqin etiladi. Ammo adabiyotshunos olim Y.Ishoqov asardagi ba'zi baytlarga asoslanib, undagi ishqni ilohiy ishq tarzida talqin etadi. U shunday yozadi: «Asar tarkibidagi ayrim ishoralar bu asar mohiyatan tasavvuf ruhida ekanligini isbotlaydi. Quyidagi bayt esa uning tasavvufdagi e'tiqodini yanada aniqroq namoyon etadi:

Qadam dar nehki dar ishq majoziy,

Ba maqsude rasi, gar pok boziy.

Mazmuni: Majoziy ishqqa qadam qo'y. Sen agar pok ravish bo'lsang, haqiqiy maqsadga erishasan.

Bu satrlardan muallif ko'zlagan asosiy maqsad, shubhasiz, ilohiy ishq... Xorazmiy bu masalada naqadar yetukligi, majoziy ishq uning uchun haqiqatga olib boradigan yo'l ustidagi ko'priki ekanligi asar xotimasi («iltimosin aytur»)dagi quyidagi baytdan ayon bo'ladi:

Muni kim ishq birla bir o'qig'ay,

Haqiqat olamini munda bilg'ay».

Bunga qo'shimcha qilib na't mazmunidagi ushbu baytlarni ham keltirish mumkin:

Muhammad anbiyog'a shoh bo'ldi,

Muhabbatdin Habibulloh bo'ldi.

Muhammaddin muhabbat bo'ldi paydo,

Meni bundog' muhabbat qildi shaydo.

Xorazmiyning asarida, ayniqsa, soqiynomalarda rindona ohanglar yetakchilik qiladi. May asarda g'am va hijron azoblaridan qutulish vositasi sifatida tilga olinadi. Uni tasavvuf she'riyatiga xos bo'lgan ilohiy ma'rifat va ishq

ma'nosida talqin etish ham mumkin. Quyidagi baytlarni solishtirib bunga ishinch hosil qilish mumkin:

Kel, ey soqiy, keturgil jomi jamni,
Kishining ko'nglidin may yur g'amni. Xorazmiy

Agar g'am lashkar angezad, ki xuni oshiqon rezad,
Manu soqi ba ham sozemu bunyodash barandozem. Hofiz

(Agar g'am oshiqlar qonini to'kish uchun lashkar tortib kelsa, men bilan soqiy ittifoq bo'lib, uni bartaraf etamiz).

G'ayr naqshidin ko'ngul jomida bo'lsa zangi g'am,
Yo'qtur, ey soqiy, mayi vahdat masallik g'amzudo. Navoiy

Xorazmiyning «Muhabbatnoma» asari ta'sirida Xo'jandiyning «Latofatnoma», Amiriyning «Dahnoma», Sayyid Ahmad ibn Mironshohning «Taashshuqnoma» asarlari yaratildi.

Xo'jandiy "Latofatnoma"ning muqaddimasida bir do'stining:

Muhabbat jomidin ichsang sharobe,
"Muhabbatnoma"ga aysang javobe,

- degan taklifi bilan o'z asarini yozganligini, shuningdek, xotimada Xorazmiyni tilga olib "Oqusa yo'lli (yaxshi, yaroqli) deb qilg'aydi tahsin" deya faxriya bayt keltiradi. Xo'jandiy asari o'n nomadan iborat:

Tilimda so'z alimda xoma bo'ldi,
"Latofatnoma" ham o'n noma bo'ldi.

Asar "Muhabbatnoma" kabi hazaji musaddasi mahzuf vaznida yozilgan.

Noma janri taraqqiyotiga Yusuf Amiriy ham munosib hissa qo'shdi. Amiriy haqida Navoiyning "Majolis un-nafois" tazkirasida quyidagi ma'lumotlar keltirilgan: "Mavlono Amiriy turk erdi va turkcha she'ri yaxshi voqe' bo'lubdur... Va bu bayt aning "Dahnoma"sindur:

Na yemakdin, na uyqudin solib so‘z,
Emakdin to‘yub, uyqudin yumub ko‘z....

Uning “Dahnoma” asari hijriy 823, melodiyl 1420-yilda yozilgan. Bu haqda quyidagi tarix baytda ma’lumot beriladi:

Bitidik emdi tarixini kotib,
Erur tarixi uchun “zabti vojib”

Yusuf Amiriy noma janri kompozitsiyasini takomillashtirishga intilib, unga epik xususiyat berdi. Asosiy qism bo‘lmish nomalardan oldin kichik bir sujet keltirib, unda lirik qahramon ma’shuqa bilan uchrashib qolganligi, munozaraga kirishganligi, biroq oshiqning nojo‘ya gaplaridan ma’shuqa arazlab ketganligidan keyin, unga noma yozishga kirishganligini ta’riflaydi. Asarda oshiq va ma’shuqaning o‘ntadan nomasi (jami yugirmata) o‘rin olgan. Doston oshiqning kechirilishi va visol bilan yakunlanadi. “Dahnoma”ning yana bir o‘ziga xosligi sarlavhalarning forsiyda qo‘yilganligidadir.

Sayyid Ahmad ibn Mironshahning “Taashshuqnoma”si ham shu janrda yaratilgan o‘ziga xos asarlardandir. Alisher Navoiy tilga olingan asarida Sayyid Ahmad haqida “... heyli mashhur nazmlari bor. Ham g‘azal, ham masnaviy, ham turkiy, ham forsiy g‘azal tavrda devoni bor”, deya ma’lumot beradi.

Dostonning yozilish sababi Majnunni tush ko‘rish voqeasi bilan bog‘langan. Asarda har bir nomadan keyin g‘azal va “So‘zning xulosasi” (soqiynoma) o‘rin olgan. Bu qismning so‘nggi bayti tarje’ ya’ni takrorlanuvchidir:

Tahammul yaxshi ishdur pasha qilmoq,
Taxayyul birla ham andesha qilmq.

Bu Xorazmiyning takrorlanuvchu baytini eslatadi.

Noma janri taraqqiyotiga Sayyid Qosimiy ham o‘zining munosib hissasini qo‘shgan. Uning “Sadoqatnoma” va “Haqiqatnoma” asarlarida nomanavislik an’anasi bilan birgalikda tasavvufiy ruh, xususan, Fariduddin Attor asarlarining ta’siri ham seziladi bo‘ladi.

Qosimiy ham mumtoz hikoyat janrining imkoniyatlaridan keng foydalanib, ijtimoiy hayotning muhim masalalari, jamiyatdagi ayrim illatlarini tanqid qilish vositasiga ham aylantirgan. Ularni shartli ravishda ijtimohamiiy-siyosiy, axloqiy-ta'limiy xarakterdagi hikoyatlarga bo'lish mumkun. Xususan, "Shoh Qubod", "Rishta kasaliga muhtalo bo'lgan shoh", "Xo'ja va Gado", "Hotam Toy" haqidagi hikoyatlar kuchli ijtimoiy mohiyati, axloqiy-didaktik mazmundorligi bilan ajralib turadi.

"Maxzan ul-asror"ining deyarli barcha naziralarida mavjud Hotam Toy timsoli Sayyid Qosimiyning "Majma' ul-axbor" dostonida ham mavjud. Asarda Yaman podshohi va Hotam haqida hikoyat mavjud bo'lib, u Sa'diyning "Bo'ston" asaridagi hikoyatning badiiy ishlanmasidir. Hikoyatda Hotam nafaqat saxovat balki fidoyilik, mehmondo'stlik, yuksak insonparvarlik timsoli sifatida ham gavdalanadi.

"Haqiqatnoma"ning umumiy hajmi 1114 misradan iborat. Asar kirish, 12 bob va bittadan hikoya, xotimadan tashkil topgan. Shoir asarning asosiy qismidagi boblarni mavzu jihatidan oltiga bo'lgan, ular quyidagilar:

1. Kirish

2. 1-8 boblar "Dar bayoni javonmardiy" (Mardlik bayonida) deb nomlanib, bularda shoir inson tabiati va uning xarakteridagi mardlik, kamtarlik, saxovat kabi insoniy fazilatlarni madh etuvchi hikoyalarni keltiradi. Bu hikoyalar tarixiy shaxslar, davlat arboblari, xalq qahramonlari hayotida yuz bergan turli ibratli voqea va hodisalar asosida tuzilgan. Shoir bu motivlarni Shohimardon, Hasan Basriy, Ibrohim Adham, Basrai Xofiy, Arastuyi hakim, Qaysari Rum va Sangsor, Mahmud G'aznaviy kabi tarixiy shaxslarning sarguzashlari orqali obrazli qilib bayon etadi.

3. To'qqizinchi bob, "Dar bayoni axli botin" da shoir Muhammad G'azzoliy haqidagi ibratli hikoyani keltiradi.

4.O'ninchi va o'n birinchi boblarni "Dar bayoni sufiyi mukallid"(Taqlidchi so'filar bayoni) sarlavhasidagi hikoyalar tashkil etadi.Bu boblarda shoir o'zi yashagan feodal jamiyatdagi ayrim din peshvolarining kirdikorlarini fosh etadi.

” 5.O'n ikkinchi bob "Dar bayoni ukbai gunox", (Gunoh ishlarning oqibati bayonida) deb ataladi.Qosimiy bu bobga kirgan hayotiy epizodlar asosida shoh va oddiy xalq vakili bo'lgan qariyaning obrazini yaratadi.

6.Xotima.

Sayyid qosimiyning "Haqiqatnoma" asari ma'lum bir syujet va kompozitsion tuzilishga ega bo'lgan mustaqil asardir.Unda surilgan g'oya voqeyiy hikoya bilan tasdiqlanadi va "Tamomi suxan" bobida so'z boshi va hikoyada bayon etilgan umumiy g'oyaga ibratomuz xulosa chiqariladi.Insonning ulug' fazilatlari olqishlanadi,kamchilik va nuqsonlari tanqid qilinib, undan qutulish yo'l-yo'riqlari ko'rsatiladi.

Endi "Haqiqatnoma"dagi eng xarakterli hikoyalar haqida to'xtab o'taylik.Shoir kamtarlikni insonning eng go'zal fazilati deb biladi.Bu fikrining dalili sifatida Arastu hakim hikoyasini keltiradi. Mazmuni: Arastudan odamlar-"Sen butun ilm-fandan xabardorsen, hayot tajribang bizga nisbatan ko'p,inson uchun odob bobida qaysi fazilat yaxshiroq",-deb so'radilar.Ularning bu savoliga Arastu quyidagicha javob beribdi:

Ayitdi mardi donokim, xomushiy,
Shikasti nafsuni tarki xudfurushiy.
Fasoxatdin erur darmonda bulbul,
Kecha-kunduz kilur bexuda gulgul,
Buningdek tutikim, shirin nafasdur,
Tilidan ul giriftori kafasdur...³²

Shoir hikoya davomida o‘z fikrini rivojlantira borib inson uchun eng ulug‘ fazilat kamtarlik ekanini, agar inson sergap, mahmadona, o‘ylamasdan ko‘p so‘zlasa u o‘zining johilligini so‘zidan bildirib qo‘yadi,-deydi:

Nechakim odamiy bulsa suxandon ,
Suzinda bortururur bir turli nukson
Kizil til yuragi nukson jondur,
Tilin tiygan kishi doim omondir³³...

”Haqiqatnoma”dagi hikoyalardan biri saxovat bobiga bag‘ishlangan.Hikoyada shoir bir badavlat, lekin juda ziqna ostondor haqida hikoya qiladi.Kunlardan bir kuni uning uyiga gado tilanchilik qilib keladi.Shayx hassasi bilan gadoni urib, haydaydi, shunda gado:

Ne xosil odamiyki bekadamdin
Ki,bermas bir taxi none karamdin?!
Nixole aslindinkim, besamardir,
Kelib tashla agar shoxi shakardir³⁴...

deb bosh olib ketadi.

Shoir inson bir-biriga mehribon,g‘amxo‘r bo‘lmas ekan, qo‘lida mol-mulki, boyligi bo‘laturib yetim-yesirlarga ko‘mak qo‘lini cho‘zmas ekan,u inson jamiyat uchun ham hech qanday foyda keltirmaydi, u so‘zlovchi hayvondir deb saxovat bobiga xulosa yasaydi:

Kima kim lutfu xizmat xamdami ermas
Erur xayvoni notik,odami ermas...

”Haqiqatnoma”ning o‘n ikkinchi bobida keltirilgan hikoyada shoir adolat,shafqat va muruvvat borasida fikr yuritadi. Bu bobga shoir ”Xizr” hikoyasini misol qilib keltiradi.

Xakikatnoma,87 bet

Xakikatnoma,96 bet”Tamomi suxan”da shoir shohning odil,bilimdon, uni to‘g‘ri yo‘lga boshlovchi vaziri bo‘lmasa, u el hurmatini qozona olmaydi,uning hokimiyati inqirozga uchraydi,-degan fikr bilan hikoyaga yakun yasaydi:

Zixi xushdavlat ul podshoe,

Angla bulsa vaziri nekroe.
Shaxikim yuk turar yaxshi vaziri,
Erur bechoralar oxi asiri.
Musallamdur anga mulki viloyat,
Raiyyat xolina kilsa ximoyat...³⁵

Shoir inson xarakteridagi eng ulug‘vor, eng ijobiy xususiyatlardan biri kamtarlik ekanini asosli va ibratli, ishonchli misollar asosida zo‘r mahorat bilan xulosalaydi:

Ogiz ochma tishingni sindirurlar,
Sani bu dardi gamdin tindirurlar.
Kabul etsang nafas davlat xamindur.
Saodat bandayu nusrat karindur.
Nasixat jomidin madxush bulgil,
Tilingni asragil sen gush bulgil...³⁶

“Dar baeni sufiyi mukallid” (Taqlidchi so‘fiylar bayoni) bobiga keltirilgan hikoyada din arboblarning jirkanch kirdikorlari zo‘r jasorat va mahorat bilan ochib tashlanganligi shoir so‘filarning ikki yuzlamachilik bilan hayot kechirishini, ya’ni ularning el oldida o‘zlarini sof, adolatli, dindor qilib ko‘rsatib aslida boylik orttirish, mehnatkash xalqni talab hukmron sinflarga xizmat qilishlarini fosh etganligini yaqqol ko‘ramiz:

Ayitursen, erurmen sufiyi sof,
Erursen muttasil bexuda kup lof.
Nega tulku kibi kuyruk solursen,
Xiyal birla jaxondin boj olursen.
Ishing kechayu kunduz xoksoriy,
Kilursen zark birla oxu zoriy.
Kalamdek sustmagzu diyda tarsen,
Uzingni kursatib elga sotarsen.
Kilursen xar zamon bir shoxa parvoz.

Aning uchun ayurlar seni gammoz³⁷.

Hikoyada shoir shayxning ikki yuzlamachiligini ochib tashlab el oldida quyidagi soʻzlar bilan sharmanda qiladi:

Eshitdim vakte shayxi gushanishine,

Asiru nafsu badbaxti la'ine.

Chu shayton ozgurub ul odamiyni,

Murid etdi uziga olamiyni.

Eturub poyani kadrin bar aflok,

Urib u loxu aylab jubban chok.

Gumon birla karin axli yakinga,

Xamesha payvari devi la'inga.

Kunguldek kalbu urni muttasil sadr,

Falakdek sarfarozu peshasi gadr.

Tashinda xirkayu ichinda zunnor,

Diramni saklamok pobandi dinor.

Uzini kursatib zoxirda darvish,

Xasaddin botinida zaxr ila nish.

Gumon birla karin kildi xaloyik,

Ki zoxirdek emas botinda sodik,

Jaxonga kavli fe'li buldi ravshan,

Buluptur ul asiri nafsi tavsan...³⁸

”Haqiqatnoma” xotimasida Sayyid Qosimiy asarni tugatgani haqida soʻzlab, bu asar kelgusi avlodga yodgorlik sifatida qolishini va kitobxon uni oʻqib shoirni yodga olib eslashidan umidvor ekanligini shunday misralar bilan ifodalaydi:

Muxabbat kuyida kildim ikomat,
”Xakikatnoma”ni etdim tamomat.
Maoniy durrini olamga yoydim,
Kungulning dardidin bir shamma aytdim...³⁶

3.2 Ilohiynoma va nomanavislikning yangi yo‘nalishi

Sayyid Qosimiy merosidan o‘rin olgan to‘rtinchi asar ”Sadoqatnoma” dostonidir. Shoir bu asarni Farididdin Attor ”Ilohiynoma” asarining tarjimasi deb kamtarona aytib o‘tadi:

Bu na juda asosu ximmat erur,
Vujudinga xazaron raxmat erur.
Iloxiy nomayi Attor bu bur,
Davyii siynayi afgor bu dur.
Oniy turkey birla Kosimiy aydi
Maoniy guxarini elga yoydi...³⁷

Bu ikkala muallif asarlarini muqoyasa qilish ularning bir-biridan tubdan farq qilishini ko‘rsatadi. Qosimiy Attorni o‘z ustози deb bilgan va unga bo‘lgan hurmat va muhabbati yuzasidan yuqoridagi misralarni yozgan bo‘lishi tabiiydir. Bu kabi hollarni klassik adabiyotda uchratish mumkin.

Shoir o‘zining bu asari orqali o‘z muhabbatiga sodiq ma’naviy pok ayol obrazini mohirlik bilan yaratgan. Shoir bu obraz orqali o‘iflos va razolatli tuban illatlarni qoralaydi. Bu doston o‘zining syujet va kompozitsiyasi jihatidan yuqorida ko‘rib o‘tilgan dostonlardan tubdan farq qiladi. Unda ko‘tarilgan ijtimoiy-siyosiy muammo, asarning isyonkorlik ruhi shoirdan katta jur‘at va shijoat talab qilganligini ko‘rsatadi. Buning yorqin ifodasini doston mazmunidan yaqqol ko‘rish mumkin.

Sayyid Qosimiy ”Sadoqatnoma”da o‘sha davr jamiyatida ayollarning haq-huquqlari naqadar cheklanganligini ko‘rsatish orqali ularni erkaklar bilan har jihatdan teng, aql-idrokda barobar ekanliklarini badiiy obrazlar orqali ko‘rsatib beradi. Shoir ayol obrazi orqali adolatli va xalqparvar shoh haqida ham gap

yuritadi. Ayolni har jihatdan zaifa deb biluvchi islom ideologiyasi hukm surayotgan bir davrda ayol jinsini maqtab shu darajada ko‘klarga ko‘tarish haqiqatda Qosimiyning katta jur‘at va matonat egasi ekanligidan dalolat beradi.

Muallifning xalq maqollaridan, hikmatli so‘zlardan o‘rinli foydalanganligi, hikoya va boblarda ko‘tarilgan g‘oyani san‘atkorona bayon etganligi uning yetuk, iste‘dodli san‘atkor darajasiga ko‘tarilganligidan guvohlik beradi.

Sayyid Qosimiy dostonlarida yuqorida aytganimizdek, boshqa ijodkorlar ijodida bo‘lgani kabi o‘zidan oldin o‘tgan shoirlarga hurmat, e‘zoz va ular ijodiga hamohang xalqchil asar yozgani yaqqol sezilib turadi. Uning ”Majma’ ul-axbor” asari Nizomiyning ”Maxzan ul-asror”i ta’siri natijasida yuzaga kelgan, ayrim hikoyalarda esa Sa’diy Sheroziyning ”Guliston” va ”Bo‘ston” asarlarining ham ta’siri kuchliligini sezamiz. ”Xotamtoy”, ”Shayx Shibliy”, ”Tulki va sher” kabi bir qator hikoyalar Sa’diy asarlarining bevosita ta’siri natijasida yuzaga kelgan.

Xulosa qilib aytganimizda, Sayyid Qosimiyning ”Majma’ ul axbor” ”Gulshani roz”, ”Haqiqatnoma” va ”Sadoqatnoma” asarlari klassik adabiyotimiz tarixida yangi bir sahifani ochadi. U o‘zining dostonlari bilan klassik adabiyotimiz tarixida vujudga kelgan didaktik dostonchilik janrini rivojlantirishga o‘zining ma’lum hissasini qo‘shgan iste‘dodli san‘atkordir. Shoir bu epik dostonlar bilan birinchidan, o‘zidan oldin o‘tgan shoir va adiblarning an‘analarini davom ettirgan bo‘lsa, ikkinchidan, bu janrni o‘zining ijodkorligi va badiiyoti bilan ham shaklan, ham mazmunan boyitib yuqori pog‘onaga ko‘tardi.

Sayyid Qosimiy hayoti, ijodi va uning merosini yanada chuqurroq o‘rganish XV asr adabiy muhiti va adabiy tilini o‘rganishda ham muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

UMUMIY XULOSALAR

- **“Majma’ ul-axbor”**, **“Gulshani roz”**, **“Haqiqatnoma”** va **“Ilohiynoma”** kabi masnaviy-dostonlar muallifi bo‘lgan Sayyid Qosimiy shaxsiyati va adabiy merosi haqida adabiyotshunoslikda ma’lum bir ishlar, asosan, adabiyotshunos olim B.Qosimxonov tadqiqotlari amalga oshirilgan bo‘lsa-da, masnaviylarining mazmun-mohiyati hamda o‘zbek mumtoz adabiyoti tarixidagi o‘rni va mavqeyi mukammal yoritilmagan.

- Sayyid Qosimiy turkiy adabiyotda Alisher Navoiyga qadar xamsanavislik an’anasining shakllanishida munosib hissa qo‘shgan ijodkirdir. Uning **“Majma’ ul-axbor”** va **“Gulshani roz”** asarlari **“Xamsa”**larning ilk dostonlari uslubida yaratilganligi bilan birga, **“Gulshani roz”** masnaviysida har bir bobga g‘azal ilova qilinishi uni nomanavislik an’anasiga yaqinlashtiruvchi xususiyatdir. Bu o‘z navbatida Sayyid Qosimiyni lirik shoir sifatida qayd etish va tavsiflash imkonini ham yaratadi.

- **“Majma’ ul-axbor”** masnaviysi Mavlono Haydarning «Maxzan ul-asror» dostoniga nazira tarzda yaratilgan bo‘lsa-da, undan bir qator xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bu birinchi navbatda doston kompozitsiyasi hamda hikoyatlarning mazmun-mundarijasida namoyon bo‘ladi.

- **“Haqiqatnoma”** va **“Sadoqatnoma”** asarlari mumtoz adabiyotimiz tarixida nomanavislikning yangi bir sahifani ochadi. Odatda dunyoviy uslubda yaratiladigan nomalar shoir ijodida tasavvufiy mazmun va g‘oyalar hamda poetik uslub bilan boyitildi. Bunda ko‘proq Fariduddin Attor asarlaridan ilhomlanish kuzatiladi.

- Sayyid Qosimiy o‘zining dostonlari bilan mumtoz adabiyotimiz tarixida boy tarixga ega bo‘lgan didaktik dostonchilik an’anasining taraqqiyotiga munosib hissasini qo‘shgan iste’dodli san’atkordir. Shoir bir tomondan mavjud an’analarini davom ettirgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, o‘zining ijodkorligi va badiiy mahorati bilan ham shaklan, ham mazmunan boyitib yuqori pog‘onaga ko‘tardi.

- Sayyid Qosimiy masnaviylari, ayniqsa ular tarkibidagi hikoyatlar ma'naviy yetuk inson tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Siyosiy va mafkuraviy adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch. - Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Karimov I.A. Adabiyotga e'tibor - ma'naviyatga, kelajakka e'tibor.- Toshkent: O'zbekiston, 2009.
3. O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» G'G' Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - Toshkent: Sharq, 1997.
4. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. - T.: Yangi avlod, 2001. - 184 b.
5. Mirziyoyev. Sh. M. Biz buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: O'zbekiston, 2017. – 484 b.

II. Ilmiy adabiyotlar

5. Abdullaev N. Haydar Xorazmiyning Nizomiy “Maxzan ul-asror”iga munosabati G'G' O'zbek tili va adabiyoti, 1974 yil, 2-son.
6. Abdullaev N. Xaydar Xorezmi i ego «Maxzan al-asrar» avtor. kon. dissert. – Tashkent, 1974.
7. Abdug'afurov A. Buyuk beshlik saboqlari. - T.:, 1995.
8. Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati (N.Mallaev tahriri ostida). – T.: O'qituvchi, 1967.
9. Alisher Navoiy «Xamsa»si. Tadqiqotlar. – T.: Fan, 1986.
10. Alisher Navoiy asarlari tilining izohlilug'ati. 4 tomlik. 1-4-tomlar. – Toshkent, 1983-85.
11. Bertels E.E. Navoiy (Rus tilidan I.Mirzaev tarjimasi). – T: Tafakkur qanoti, 2015.

12. Valixo‘jaev B. Valixo‘jaev B.N. Xamsa takmili. Alisher Navoiy «Xamsa»si. Tadqiqotlar. -T.: Fan, 1986. 81-89 b.
13. Valixo‘jayev B. Mumtoz siymolar. -T.: A.Qodiriy, 2002.
14. Vohidov R., Eshonqulov H. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi (O‘quv qo‘llanma) –T.: Yangi asr, 2006.
15. Karomatov H. Qur‘on va o‘zbek adabiyoti. – Toshkent, 1996.
16. Kasimxanov B. Sayyid Kasimi i ego literaturno-didakticheskie poemo‘. Avtoreferat kandidata nauk. – Tashkent, 1991.
17. Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. - Toshkent: Yozuvchi, 1996.
18. Komilov N. Xizr chashmasi. –T.: Ma‘naviyat, 2005.
19. Ma‘naviyat Yulduzlari. – Toshkent: Xalq merosi, 2001.
20. Muhiddinov M. Komil inson – adabiyot ideali. – Toshkent: Fan, 2005.
21. Muhiddinov M. “Xamsa”larning birinchi dostonlarida “Xilvat” va “Hayrat”larning qiyosiy talqini G‘G’ “Filologiya masalalari” jurnali. 2014-yil, 4-son. 470-bet.
22. Salohiy D. Navoiy nazmiyoti (O‘quv qo‘llanma). – Toshkent, 2012.
23. Salohiy D. Navoiy epik she‘riyati (Uslubiy qo‘llanma). – Samarqand: SamDU nashri, 2011.
24. Tohirov S. Xamsanavislikning ilk qoidasi xususida. SamDU «Ilmiy axborotnoma»si. 2013 yil 4-son. 57-61 betlar.
25. Tohirov S. O‘zbek she‘riyatida aruz. - Samarqand: SamDU nashri, 2010.
26. Tohirov S. Xoju Kirmoniyning «Ravzat ul-anvor» dostoni G‘G’ SamDU «Ilmiy axborotnoma»si. 2015 yil 2-son. 57-61 betlar.
27. Xidirnazarov S. Poema «Xayrat al-abror» («Smyatenie pravedno‘x») Alishera Navoi. Problemo‘ tipologii i poeticheskoy arxitektoniki. Avtor. kond. nauk. –Tashkent, 1990.
28. O‘zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik. 2-tom. – T.: Fan, 1974.
29. Qayumov A. «Hayrat ul-abror» talqini. - T., 1977.

30. Qosimxonov B. Sayid Qosimiyning adabiy-didaktik dostonlari. — Toshkent: Fan, 1992.
31. Qur'oni karim (O'zbekcha izohli tarjima. Tarjima va izohlar muallifi A.Mansur). — T.: Cho'lpon, 1992.
32. Hayitmetov A. Navoiyxonlik suhbatlari. - T.: Fan, 1993.

III. Adabiy manbalar

33. Alisher Navoiy. MAT. 20 tomlik. 7-tom. Hayrat ul-abror. — T.: Fan, 1991.
34. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. — Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006.
35. Sayyid Qosimiy. Haqiqatnoma. Sadoqatnoma G'G' Muborak maktublar. — Toshkent: Adabiyot va san'at, 1987.
36. O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari. — T.: Fan, 2003. 196-223-betlar.